

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

●Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan ●2023-yil 1-dekabr, №48 (3058)



BIZ
HAQIMIZDA

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,

@vatanparvar-bt@umail.uz

• t.me/mv_vatanparvar_uz

• t.me/mudofaavazirligi

www.mudofaavazirligi.com

mudofaavazirligi.uz

uzarmiya

URLIK GAZETASI



TUNGI
SAMARALI
JANG
4



RAHBARLAR
“YANGIARIQ”
POLIGONIDA

6



MARDLAR
MAYDONDA
SINALDI
19

FARMATSEVTIKA VA ELEKTROTEXNIKA SANOATIDAGI DOLZARB MASALALAR

MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-noyabr kuni farmatsevtika va elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarishni yanada qo'llab-quvvatlash, korxonalarning eksport salohiyatini oshirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizda bu ikki tarmoq uchun ham zarur xomashyo, yetarli sharoitlar bor. Xususan, oxirgi olti yilda farmatsevtika sohasida ishlab chiqarish 3 barobar, eksport 6 barobar ko'paygan. 525 million dollarlik 177 ta loyiha ishga tushirilib, jami 50 mingta ish o'rni yaratilgan.

Lekin bu hali mavjud imkoniyat va talab darajasida emas. Masalan, yurtimizda yiliga 1,6 milliard dollarlik dori-darmon iste'mol qilinadi. Bunda mahalliy mahsulotlarimizning ulushi bor yo'g'i 18 foiz, qolgani import hisobidan qoplanyapti.

Shu bois yig'ilishda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

– So'nggi yillarda bu sohaga katta ko'mak va mablag' berildi, farmatsevtika zonalari tashkil etildi. Lekin bundan to'la foydalanimayapti. Mahalliylashtirishni kengaytirish, tadbirkorlar loyihamarini

qo'llab-quvvatlash, ularning mahsulotlari xaridorgirligini ta'minlash kerak. Buning zamirida qancha ish o'rni, qancha odamlarning roziligi bor, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu boroda xorij tajribasini o'rganish, mashhur brendlarni mamlakatimizga jaib etish muhimligi ta'kidlandi. Jumladan, eng ko'p iste'mol qilinadigan 50 turdagilari yurtimizda ishlab chiqarish orqali mahalliylashtirish ulushini 35 foizga yetkazish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

"Tashkent Pharma Park" klasteri qurilishini jadallashtirish, unga xususiy sherikni jaib etish zarurligi aytildi. Shuningdek, farmatsevtika korxonalariga "GMP" xalqaro standartiga o'tish va markirovkalash tizimini yo'liga qo'yishda ko'maklashiladi.

Umuman, bu sohada 1,5 milliard dollarlik 173 ta loyiha shakllantirilgan. Ularni moliyalashtirish uchun 600 million dollar yo'naltiriladi.

Mutasaddilar bularning natijasida 2024-yilda 400 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarilishi, 160 million dollar eksport ta'minlanishi bo'yicha axborot berdi.

Yig'ilishda elektrotexnika sanoatiga doir masalalar ham ko'rib chiqildi.

So'nggi olti yilda bu sohada 640 million dollarlik 224 ta loyiha ishga tushirilgan. Bu yil yakunida eksport 1 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, yurtimizga yiliga 800 million dollarlik elektrotexnika tovarlari import bo'lmoqda. Umuman olganda, mintaqamizda 3 milliard dollarlik bozor bor.

Bunda munosib o'r'in egallash uchun nufuzli brendlarni bilan hamkorlik o'rnatib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligi qayd etildi. Kelgusi yilga mo'ljallangan 2 milliard dollarlik 141 ta loyihada bunga alohida e'tibor qaratiladi.

Joriy yilda 2 gigavatt, 2024-yilda yana 4 gigavatt quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushiriladi. Ularga juda ko'p kabel, generator, invertor, transformatorlar zarur. Bu mahsulotlarni mahalliylashtirib, xalqaro sifat sertifikatlari olish vazifasi qo'yildi.

Sohada ilg'or texnologiya, innovatsiya va xalqaro standartlarni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun 100 million dollar yo'naltirilishi belgilandi.

Mutasaddilar kelgusi yilda ishlab chiqarishni 20 foizga oshirish, misni qayta ishslash hajmini 140 ming tonnaga olib chiqish rejalarini bayon etdi. Shuningdek, eksportni 1,5 milliard dollarga, 2025-yilda 2 milliard dollarga yetkazish imkoniyati borligi qayd etildi.

Yig'ilishda ushbu tarmoqlardagi muammo va vazifalar yuzasidan viloyat hokimlari va tadbirkorlarning takliflari eshitildi.

SUVNI TEJASH BO'YICHA FAVQULODDA ISH TIZIMIGA O'TILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-noyabr kuni qishloq xo'jaligidagi suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizdagi suv resurslarining 20 foizi o'zimizda, katta qismi qo'shni davlatlarda shakllanadi. Iqlim o'zgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib bormoqda. Transchegaraviy daryolarni boshqarish bo'yicha vaziyat ham jiddiy. Bularning ta'sirida 2030-yilga borib yurtimizdagi suv tanqisligi 15 milliard kub metrga yetishi prognoz qilinayapti.

Lekin shu holatda ham suvdan samarasiz foydalanimayapti. Mamlakatimizdagi jami suv resursining 90 foizi qishloq xo'jaligidagi sarflanayapti. Masalan, yurtimizda bir hektar paxta maydonini sug'orish uchun yiliga 10-11 ming kubmetr suv sarflangani holda, iqlimi va yeri biznikiga o'xshash mamlakatlarda bundan 2-3 baravar kam suv ishlatalayapti. U ham bo'lsa, suvni to'g'ri boshqarish, isrof qilmaslik hisobiga.

Suv xo'jaligiga har yili o'rtacha 1 milliard dollar mablag' yo'naltirilmoqda. Bu soha byudjetdan mablag' olish bo'yicha ta'lif, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligidan keyin 4-o'rinda turadi. Ammo tizimda hisob-kitob to'g'ri yo'iga qo'yilmagani, suv resurslarini boshqarishda eskicha yondashuvlar saqlanib qolgani uchun samara kam.

Yig'ilishda bu sohadagi muammolar, yangi tashabbus va vazifalar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari bir yil davomida suvni tejash bo'yicha favqulodda ish tizimiga o'tilishini ta'kidladi.

Bunda birinchi muhim vazifa – kanal va ariqlarni betonlash. Hisob-kitoblarga ko'ra, betonlanmagan irrigatsiya

tarmoqlarida yiliga o'rtacha 14 milliard kub metr yoki 36 foiz suv hech qanday iqtisodiy samarasiz isrof bo'lyapti. Eng ko'p suv yo'qotishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Navoiy, Xorazm va Buxoro viloyatlariga to'g'ri keladi. Kanallarning oxirida joylashgan 175 ming hektar ekin maydonida suv ta'minoti juda og'ir.

Umuman, suv yo'qotishlari oqibatida iqtisodiyotimizda yiliga 5 milliard dollar daromad boy berilyapti.

Shu bois suv xo'jaligidagi "kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yil" e'lon qilindi. Kelgusi yilda 1 ming 500 kilometr, ya'ni bu yilgiga nisbatan 4 barobar ko'p yirik kanallarni betonlash vazifasi belgilandi. 2025-yildan boshlab kamida 2 ming kilometrdan kanallarni betonlashga o'tildi.

Buning uchun noyabr-mart oylari eng qulay vaqt ekani, loyihasi tayyor kanallarda qurilishni hozirdan boshlash kerakligi qayd etildi. Viloyat va tuman hokimlariga bir yil ichida 3 ming 500 kilometr ichki tarmoqlarni beton qoplamaga o'tkazish topshirildi. Bundan manfaatdor klaster va fermerlarga maxsus texnika va qurilish materiallaridan yordamlashib, xarajatlarni 2 karra kamaytirish mumkinligi aytildi.

Ikkinci muhim vazifa – suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish.

Mamlakatimizda 4,3 million hektar sug'oriladigan yer bo'lib, shundan 30 foiziga suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan. Bunday klaster va fermer xo'jaliklarda suv 30-40 foizga, o'g'it va yoqilg'i 25-30 foizga tejalishi bilan birga hosildorlik oshgan.

Lekin suv yetkazish tannarxi juda qimmat bo'lgan Qashqadaryoda bunday usulda sug'oriladigan yerlar atigi 16 foizni tashkil etadi. Suv tejashda eng sodda agrotexnik tadbir bo'lgan yerni lazerli tekislash ishlari ham yetarli emas. Bunday maydonlar Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida 10 foizdan kam.

Buning sabablaridan biri – suv tejovchi texnologiyani joriy qilgan fermerlarga kredit foizining bir qismini qoplash tartibi ishlashtirish. Shu bois yig'ilishda bu bo'yicha yangicha moliyalashtirish tizimi belgilandi. Unga ko'ra, klaster va fermerlarga suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun ikki yillik imtiyozli davr bilan besh yilga 14 foizli kredit ajratiladi. Buning uchun ochiq-oshkora platforma ishga tushiriladi. Ham bank bilan, ham ta'minotchilar bilan shartnomalar elektron platforma orqali onlayn imzolanadi.

Mutasaddilarga buning moliyaviytashkiliy jihatlari bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Suv tejash joriy etilgan maydonlarni har yili kengaytirib borish, Turkiya, Ispaniya va Xitoyning bu bo'yicha tajribasini o'rganish muhimligi ta'kidlandi.

Kelgusi uch yilda ham qishloq xo'jaligi texnikasining 15 foizi va lazerli tekislagichning 30 foizini subsidiyalash amaliyoti davom ettiriladi. 2026-yilgacha hamma ekin yerlari lazerli tekislanaadi. 2026-yildan keyin lazerli tekislana magan yerlarga nisbatan yer va suv soliqlari keskin oshiriladi.

Uchinchi muhim vazifa – suvni yetkazish xarajatlarni qisqartirish.

Bugungi kunda klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har 1 kubmetr suvga o'rtacha 212 so'm xarajat

qilinayapti. Lekin Buxoro, Qashqadaryo va Namanganda bu 2-3 barobar qimmat.

Shu bilan birga, suv xarajatining 63 foizi nasos stansiyalari hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, sug'orish uchun yiliga 7 milliard kilovatt soat elektr energiyasi sarflanadi. Chunki suv nasoslarining 80 foizi eskirgan, energiya sarfi yuqori.

Davlatimiz rahbari bu xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishning eng to'g'ri yo'li – nasoslarni modernizatsiya qilish va ularni boshqarishni xususiy sheriklikka berish ekanini ta'kidladi.

Bu borada bir nechta loyiha boshlangan. Bu ishlarni jadallashtirib, xalqaro moliya tashkilotlari ishtiroyida 95 ta nasos stansiyasini yangilash, kelgusi yil boshida yana 118 tasi bo'yicha tender e'lon qilish vazifasi qo'yildi.

Shu bilan birga, xorijiy kompaniyalar 268 ta nasosni boshqaruvga olish tashabbusini bildirgan.

Umuman, ushbu choralar orqali kelgusi yili nasoslarning elektr sarfini 300 million kilovatt soatga, keyingi uch yilda esa 1,5 milliard kilovatt soatga kamaytirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Suv xo'jaligi vazirligiga xalqaro moliya tashkilotlari bilan birga, nasoslarni modernizatsiya qilish bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqish topshirildi. Sohada zamонави boshqaruvni joriy etish, suv hisobini yuritish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda suv xo'jaligi vaziri, hokimlar va boshqa rahbarlarning axboroti eshitildi.

O'ZBEKISTON "XAVFSIZLIKNING BO'LINMASLIGI" TAMOYILINI QO'LLAB-QUVVATLAYDI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida "Globallashuv sharoitida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tendensiyalari" mavzusida V xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya bo'lib o'tdi.



III darajali serjant Farnux SOLJONOVA

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hamkorligida tashkil etilgan konferensiya O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan harbiy attashelar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, YXHT, Xalqaro Qizil xoch va Qizil yarim oy qo'mitasi, dunyoning nufuzli strategik tadqiqotlar markazlari, ShHT Mintaqaviy terrorizmga qarshi tuzilmasi, MDHga a'zo davlatlar mudofaa vazirlari kengashi kotibiyati, O'zbekiston, Ozarbayjon, Turkiya, Belarus, Germaniya, Hindiston, Italiya, Qozog'iston, Xitoy, Janubiy Koreya, Qirg'iziston, Pokiston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston kabi davlatlarning ilmiy tadqiqot va olyi harbiy ta'lif muassasalari vakillari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining birinchi o'rinnbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuhrat Xalmuxamedov anjumanni kirish so'zi bilan ochar ekan, O'zbekiston "Xavfsizlikning bo'linmasligi" tamoyilini qo'llab-quvvatlagan holda dunyo davlatlari suverenitetini ta'minlash, jahon va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan tahdidlarni yumshatish, harbiy mojarolarning oldini olish, tinch aholiga nisbatan harbiy harakatlar va urush qoidalariha hamda xalqaro gumanitar huquq normalariga riosa qilgan holda har tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan faol tashqi siyosiy faoliyat olib borayotganini e'tirof etib, o'tkazilayotgan konferensiya mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan, o'zaro kelishilgan yodashuvlarni ishlab chiqishda samarali muloqot maydoni bo'lishiga ishonch bildirdi.

Shundan keyin akademik va ekspert-tahlil doira vakillari o'ttasida mintaqada

xavfsizlikni ta'minlashning dolzARB masalalari bo'yicha fikr almashish va yangi imkoniyatlarni izlash, samarali yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha ma'ruzalar boshlandi.

Keyingi yillarda dunyodagi tobora murakkablashib borayotgan harbiy-siyosiy vaziyat, manfaatlar to'qnashuvi yangi muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Davlatlar xavfsizlikning yangi modellarini, eng qulay yo'llari, konsepsiylari va strategiyalarini izlamoqda. E'tirof etish joizki, xavfsizlikning yangi konturlarini shakllantirish, chegaralarni himoya qilish, narkotik moddalar savdosi, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, odam savdosi, noqonunyu migratsiya, uyushgan jinoyatchilik va kiber-jinoyatchilikqa qarshi kurashish hamda ekologik muammolar fonida amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda O'zbekiston o'zining qat'iy pozitsiyasini namoyon qilib kelmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda bir qator xalqaro tadbirlar, xalqaro konferensiylar o'tkazilib, turli loyiha va amaliy tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, BMT Bosh assambleyası O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusini qo'llab-quvvatlab, Janubiy va Markaziy Osiyo o'rtaсидаги o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash to'g'risidagi maxsus rezolyutsiyasini qabul qildi.

Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya xavfsizlik va birgalikda olib boriladigan rivojlanish sohasida mintaqaviy hamkorlikning joriy va yangi tendensiyalari hamda istiqbollari, XXI asrda texnologik taraqqiyotni hisobga olgan holda mintaqaviy harbiy mojarolarning oldini olish va mojarodan

keyingi tartibga solishda Qurolli Kuchlarning roli, mintaqaviy xavfsizlikka ta'sir etuvchi davlat chegaralariga daxl soluvchi turli tahdidlarga qarshi umumi yondashuvlarni shakllantirish va ishlab chiqish, ekologik muammolar va ularning mintaqqa xavfsizligiga ta'siri, sun'iy intellekt va neyrotarmoqning rivojlanishi global sharoitda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari kabi mavzular muhokama qilindi.

O'zbekiston tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi, Markaziy Osiyo xalqaro instituti, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi, Mudofaa vazirligi, Qurolli Kuchlar akademiyasi va boshqa ilmiy markazlar, ta'lif muassasalari vakillari so'zga chiqdi. Anjunanda alohida qayd etilganidek, bugungi globalashuv sharoitida xavfsizlik muammolarini o'zaro sa'y-harakatlarni birlashtirmasdan, ularni muvoqiflashtirmasdan turib samarali hal etishning imkoniyati yo'q. Zamonaviy tahid va xatarlarga qarshi turishning mavjud vosita hamda mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiya va xulosalar, aniq dastur, loyihamar, harbiy ilm-fan va texnologiyalar sohasida hamkorlikni yanada rivojlanish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish muhim.

Pokiston Islom Respublikasi Milliy mudofaa universiteti mintaqalararo tadqiqotlar va tahliliy instituti direktori, Xitoy Milliy mudofaa universiteti professori, Ozarbayjon Milliy mudofaa universiteti rektori, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti xodimi, Rossiya, Janubiy Koreya va NATO vakillari

onlayn tarzda o'qigan ma'ruzalarida mintaqaviy aloqalar, hamkorlikda aksilterror xavfsizlik jamiyatini tashkil etish, mintaqaviy xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi geosiyosiy tendensiyalar, portlovchi moddalar va o'qotar qurollarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish kabi masalalar bo'yicha fikr-mulohaza va xulosalarini bildirdilar.

Markaziy Osiyonи tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik mintaqasiga aylantirish hamda birgalikda rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratish doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor maqsadi bo'lib kelgan. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu boradagi tashabbuslari Markaziy Osiyoning barcha davlatlari rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar ko'p tomonlhma muloqotlarga turki bo'lib, mintaqada integratsiya jarayonlarini yanada rivojlanishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasida o'tgan "Globallashuv sharoitida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tendensiyalari" mavzusidagi V xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya ham ana shu jarayondagi muhim qadam bo'lgani e'tirof etildi.

Ishtirokchilar tomonidan xavfsizlik masalalari bo'yicha mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarini faollashtirish, xavfxatar va tahdidlarga qarshi kurashda hamkorlikni yo'nga qo'yish va mavzuga aloqador masalalar bo'yicha aytigan maqsadli takliflar, o'qilgan ma'ruzalar va tezislardan konferensiya materiallari to'plamida e'lon qilinishi bildirildi.

Furqat ERGASHEV



TUNGI SAMARALI JANG

KUNDUZGI G'ALABANI TA'MINLAYDI

Samarkand garnizonida tashkil etilgan amaliy ko'rgazmali mashg'ulotlarda Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Farrux Ziyabayev ham ishtirok etib, ofitser va serjantlarga tungi ko'rish va optik mo'ljalga olish moslamalaridan foydalanish bo'yicha mahorat darslarini o'tkazdi.

Okrug tasarrufidagi batalyonlar komandirlari va ularning o'rinnbosarları uchun tashkil etilgan ushu mahorat darsida qo'mondon qo'shinlarning tungi sharoitlarda munosib jang olib borishi, ularning kunduzgi jangda yaqqol ustunlikka erishishini ta'minlashini aytib o'tdi. Shuningdek, mintaqada yuz berayotgan harbiy-siyosiy vaziyatlarda ham tunda qurol va jangovar texnikalarni mohirona qo'llash asosiy hal qiluvchi vosita bo'layotganini ham ta'kidladi.

Shundan so'ng qo'mondon rahbarligida guruh jangovar otish mashg'ulotlari namoyish etildi. Unda dastlab tungi sharoitda havo hujumidan mudofaa qilish va dushmanning uchuvchisiz uchish apparatlarini urib tushirish ko'rsatildi. Tunda guruh bo'lib jangovar harakatlarni olib borish, qo'shinlarning notanish hududlarda joylashuvi hamda har tomonlama ta'minotini tashkil etish masalalariga qaratilgan ko'rgazmali o'quv mashg'uloti ham anchayin qiziqarli kechdi. Qo'mondon tunda bajariladigan har qanday mashg'ulotga eng avvalo, komandirlar tarkibining diqqati ikki barobar kuchliroq qaratilishi, texnika xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilinishi kerakligi borasida ko'rsatmalar berib, ommaviy qirg'in qurollariga ham shay turishi lozimligi eslatib o'tildi.

O'ndan ortiq o'quv nuqtalarida tashkil etilgan mashg'ulotlar davomida komandir va ularning o'rinnbosarları uchun tunda xarita bilan va xaritasiz, yerdagi navigatsiya qurilmalari yordamida harakatlanish, hudud koordinatalarini aniqlash, joyda va harakatda oriyentirlash, azimutlar bo'yicha harakatlanish kabi mashqlar harbiy topografiyadan o'tkazilgan amaliy mashg'ulotda yoritib berildi.

Mashg'ulotlar davomida qurollarda optik mo'ljalga olish moslamalarsiz oddiy fosforlardan foydalanish masalalari ham ko'rib chiqildi va uning samaradorligi inobatga olinib, harbiy xizmatchilar uchun ekstremal sharoitlarda qulay imkoniyatni yaratishi mumkinligi muhokama etildi.

**Katta leytenant
Otabek NORBOYEV,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig'i**





MAJMUAVIY MASHG'ULOTLAR MUVAFFAQIYATI

Mamlakatimizning shimolida tungi sharoitda cho'l hududida mudofaa jangini tashkil etish bo'yicha ko'rgazmali majmuaviy batalyon taktik o'quvi o'tkazildi.



Ko'rgazmali batalyon taktik o'quvi shartiga ko'ra, bir necha yuzlab kilometr masofada davlatimiz chegarasini noqonuniy buzib kirgan va mamlakat ichkarisiga harakatlanayotgan shartli dushman harakatini to'xtatish va yakson qilish bo'yicha o'quv-jangovar vazifa olgan harbiy qism kechga tomon "Yig'in" signali bo'yicha yuqori jangovar shaylik holatiga keltirildi.

Majmuaviy o'quvni Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shnlari qo'mondonligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi kuch tuzilmalari vakillari, Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilar kuzatib bordi. O'quv ko'rgazmali bo'lgani bois har bir jarayon o'quv nuqtalarida real vaqt mezonida sharhlab borildi.

Dastlab yuqori jangovar shaylik holatiga keltirilgan shaxsiy tarkib piyoda marsh amalga oshirish uchun jamlanib, ularga jangovar vazifa yetkazildi. Marsh amalga oshirish uchun jangovar buyruq

olgan batalyon shaxsiy tarkibi piyoda harakatlanishda shartli dushman tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalanish hamda minalashtirilgan hududni zararsizlantirishni amalda namoyish etdi. Marsh yurish davomida tunda kolonnaga hujum bo'lganda uni qaytarish, belgilangan joylashuv nuqtasiga yetib borish amalga oshirildi.

Dala sharoitida bo'linmalarning joylashuvi, hudud qo'riqlovi, muhofaza va ta'minotni tashkil etish bo'yicha olib borilgan mashg'ulotlarda shaxsiy tarkib belgilangan joylarni tayyorlash va jihozlashga kirishdi. Shaxsiy tarkib cho'l hududida bo'linmalar va texnikalarning joylashuvi uchun sharoitlar yaratib, mudofaa jangini olib borishga hozirlik ko'ra boshladi.

Olingan keyingi jangovar topshiriqqa muvofiq, harbiy va jangovar texnikalarga joylashgan shaxsiy tarkib zudlik bilan vaqtincha joylashgan o'rmini tark etib, kolonna bilan belgilangan hududga

marsh amalga oshirdi. Harakat davomida kolonnaga shartli ravishda hujumlar uyuştililib, turli nostonart vaziyatlarda harbiy xizmatchilarining harakati baholandi. Shartli dushman tomonidan ommaviy qirg'in qurollarini qo'llash amalga oshirilgani bois harbiy texnika va shaxsiy tarkibni dezinfeksiya va degazatsiya qilish ishlari namoyish etildi.

Asosiy qo'shin mudofaa rayonidagi okoplarda joy egallashiga tutunli parda orqasidan qulaylik yaratildi. Mudofaa rayoni marralarini egallah uchun qisqa fursatda jangovar texnikalarda kelgan harbiy xizmatchilar ham janggohlardan o't ochishni boshladi.

Keyingi navbatda mudofaa chizig'idan ichkarida turgan minomyotchi bo'linmalar nishonlarni yakson etdi. Yorituvchi snaryadlar jang maydonini yoritib, shartli dushman pozitsiyalari, jangovar texnika va shaxsiy tarkib joylashgan nuqtalarni ko'rishga ko'maklashdi.

Artilleriya o'tini tungi sharoitda boshqarish va nishonlarni aniq

ko'rsatishda ko'mak bergen uchuvchisiz uchish apparatining imkoniyatlari mazkur jangda to'liq namoyish etildi. Tankchilar vzvodi og'ir jangovar texnikalari bilan madad bergancha shartli dushmanga katta talafotlar yetkazib, uning zirhli texnikalarini safdan chiqardi.

Mazkur majmuaviy taktik o'quvida shartli yaradorlarning o'ziga o'zi va safdoshiba birinchi tibbiy yordam ko'rsatishi, jang maydonidan jabrlanganlarni evakuatsiya qilish bo'yicha harbiy xizmatchilarining harakatlari amalda ko'rsatib berildi.

Barcha turdag'i qurollardan o'q uzilib, shartli kuchlar yakson etildi. O'zaro hamkorlik va uyushqoqlik, harbiy xizmatchilarining yuksak malaka va mahorati bo'linmalar oldiga qo'yilgan o'quv-jangovar vazifani muvaffaqiyatlari bajarishga zamin yaratdi.

**Podpolkovnik Temur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig'i**



RAHBARLAR “YANGIARIQ” POLIGONIDA

“Yangiariq” umumqo’shin poligonida Qoraqalpog’iston Respublikasi va Xorazm viloyatining davlat boshqaruv va mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar rahbarlari ishtirokida bir necha kunlik harbiy yig’inlar bo’lib o’tdi.

Ishtirokchilar amaliy mashg’ulotlarda mahoratlari yo’riqchilardan o’qotar qurollarni jingga tayyorlash, nishonlarni mo’ljalga olish va merganlikning sir-asrorlarini o’rganishdi. Ularning mashqlarni bajarishdagi o’ziga bo’lgan ishonchi, dadilligi va qat’iy intizomi mashg’ulotlarning yanada samarali o’tishiga zamin yaratdi.

Ayniqsa, piyodalar va jangovar texnikalarga qarshi portlaydigan va portlamaydigan to’siqlarni qo’llash, mudofaa jangini tashkil etishda okop va blindajlarni jihozlash, ularni hududga mos tarzida niqqoblash bo'yicha olib borilgan amaliy mashg’ulot barchanining diqqatini o’ziga tortdi.

Ma’naviyat markazida o’tkazilgan tadbirda esa dunyo va mintaqamizda hukm surayotgan harbiy-siyosiy vaziyat, harbiy xizmatni tashkil etishning qonuniy asoslari, mamlakatimiz Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan izchil islohotlarning samarasini, safarbarlik asoslari hamda qo’shinlarda jangovar tayyorgarlikni tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari bo'yicha harbiy okrug vakillari tomonidan ma’ruzalar taqdim etildi.

Kechki mahal ishtirokchilar yana bir murakkab mashg’ulotda ishtirok etishdi. Guruhlarga bo’lingan shaxsiy tarkib tunda navigatsiya moslamalari va yulduzlarga qarab azimut bo'yicha harakatlanishni amalga oshirdi. Uchta yashirin joyga qo’ylgan orientirlarni topish vazifasiga kirishgan guruhlar chamasi 4–5 kilometrli masofani bosib o’tdi.

Har qanday vaziyat va sharoitda qo’shinlar ta’minoti, ayniqsa harbiy xizmatchilarga uch mahal



issiq ovqatni yetkazib berish, albatta, eng muhim masalalardan hisoblanadi. Navbatdagi o’quv nuqtasida yig’in qatnashchilariga ovqat tayyorlashni tashkil etishda dala oshxonasi faoliyati amaliy namoyish etildi. Ishtirokchilar shaxsan dala sharoitida pishgan mazali taomlardan tanovul qilib, o’zlarini jangovar harakatlarda ishtirok etayotgan askarlарde his etishdi.

Mashg’ulotlar davomida Mudofaa vazirligi bo’linmalarini cho’l sharoitida tayyorlash markazining imkoniyatlari, yovvoyi hayvonlarni ovlash va baliq ushplashga mo’ljallangan tabiiy va sun’iy vositalar, olov chiqarish, suv topish va oziq-ovqat zaxirasini yaratish bo'yicha ko’rgazmali o’quv nuqtalari ham namoyish etildi.

Kun yakunida o’tkazilgan harbiyashgan estafeta esa yig’in ishtirokchilarining jismoniy va axloqiy-ruhiy imkoniyatlarini sinovdan o’tkazib, raqobatlashishga sharoit yaratdi.

Murosasiz o’tgan bellashuvda jamoalar yaqin masofaga yugurish, avtomatni noto’liq qismalarga ajratish va yig’ish, o’q-dori solingen quti hamda gazniqob bilan yugurish, granatani uloqtirish mashqlarini yuqori kayfiyatda hamda uyushqoqlikda bajarishdi.

Yig’in so’ngida Shimoli-g’arbiy harbiy okrug qo’shinlari qo’mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov barcha ishtirokchilarni yig’in doirasida qo’ylgan topshiriqlarni bajargani hamda rejadagi mashg’ulotlarda samarali ishtirok etgani uchun minnatdorligini bildirdi. Barcha ishtirokchilar sertifikat hamda harbiy okrug qo’mondonligining esdalik sovg’alari bilan taqdirlandi.

O’zbekiston davlat filarmoniyasi Xorazm viloyati bo’linmasi hamda viloyat madaniyat soha vakillari tomonidan namoyish etilgan bayramona konsert dasturi dillarga orom bag’ishlab, bir necha kunlik charchoqlarni aritdi, desak, yanglishmaymiz.

Shu kuni yig’in ishtirokchilari “Yangiariq” umumqo’shin poligonida kelajakka yaxshi niyatlar bilan yosh nihollarni yerga o’tqazishdi. Shundan so’ng viloyat rahbari Jo’rabek Rahimov Qoraqalpog’iston Respublikasidan tashrif buyurgan rahbarlarga Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi Istiqlol mahallasida hamda Qo’shko’pir, Shovot tumanlarida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishtirdi.

Shimoli-g’arbiy harbiy okrug matbuot xizmati



MUHIM MAVZULAR MUHOKAMASI

Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida Mudofaa vazirligi tibbiy ta'minot boshqarmasi tashabbusi bilan "Kasalliklarni taxxishlash va davolashning innovatsion usullari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.



Mamlakatimizning tibbiy ta'limga muassasalarini o'qituvchilar, ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, kuch tuzilmalarining harbiy gospitallari vakillari hamda mustaqil izlanuvchilar, kursant va talabalar ishtirok etgan anjumanda harbiy-tibbiy fanlarning eng zarur va dolzarb yo'nalishlari muhokama qilindi. Unda Turkiya, Germaniya,

Rossiya, Litva davlatlarining yetakchi mutaxassislari ham onlayn tarzda qatnashib, ma'ruba o'qidi.

Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishda gomotsisteining o'rni, miocard infarktning topik diagnostikasi, og'ir yarador bo'lgan va jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatishdagi tashkiliy jihatlar, taktik bo'g'inda tibbiy ta'minotni

tashkillashtirish, oliy tibbiy ta'limga muassasalarini kursant va talabalarining bilim hamda ko'nikmalarini yanada oshirishda simulyatsiya usullaridan foydalanish va boshqa bir qator mavzular bo'yicha eng maqbul taklif va mulohazalar o'rtaqa tashlandi. Ayniqsa, fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar hamda yosh izlanuvchilar tibbiyotning dolzarb masalalari, xususan malakali tibbiy xizmat ko'rsatish jarayoniga ilm-fanning eng ilg'or tajribalarini, innovatsion ishlarni keng joriy qilish

o'rganish hamda bo'lg'usi harbiy shifokor va tibbiyot mutaxassislarining ishini tashkil etish mexanizmlarida eng ilg'or tajribalarni tahlil etib, hayotga tatbiq qilish, bir so'z bilan aytganda, harbiy tibbiyotni yanada rivojlantirish haqida ham fikrlar bildirildi.

Anjuman so'ngida olimlar va yetakchi mutaxassislar tomonidan kasalliklarni taxxishlash va davolashning innovatsion usullari xususidagi fikr va xulosalari, ilgari surilgan g'oya hamda tashabbuslar



XALQARO HAMKORLIK

MAQSAD – TAJRIBA ALMASHISH

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi harbiy tibbiyot mutaxassislari Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali hamda Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida bo'ldi.

borasidagi fikr-mulohazalari yig'ilganlar tomonidan diqqat bilan tinglandi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda jahon tendensiylariga va sog'lioni saqlashning amaliy ehtiyojlariga muvofiq, harbiy tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, tibbiy xizmat ko'rsatishning ilmiy-metodik asoslari, yangi tibbiyot texnologiyalarini

Qurolli Kuchlar tibbiy xodimlarining harbiy va kasbiy tayyorgarligi darajasini muntazam oshirish va ularni qayta tayyorlash, maxsus bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, harbiy tibbiyot sohasida ilmiy-tadqiqotlar olib borishga xizmat qilishi, shuningdek kelgusi hamkorliklarga jiddiy turki berishi e'tirof etildi.



Tashrif avvalida britaniyalik mehmonlar Mudofaa vazirligi tibbiy ta'minot boshqarmasi, Markaziy harbiy klinik gospitali va Harbiy tibbiyot akademiyasi rahbariyati bilan uchrashdi. Unda harbiy tibbiyot bo'yicha o'zaro hamkorlikning hozirgi holati va uni rivojlantirish masalalari borasida fikr almashildi. Shundan keyin mehmonlar mamlakatimizda

harbiy tibbiyot sohasidagi ishlar, kadrlar tayyorlash masalalari bilan qiziqib, harbiy gospital va akademiyada yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdilar.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Mudofaa vazirligi harbiy-tibbiy brigadasi boshlig'i polkovnik Ulyam Inglis boshchiligidagi delegatsiya vakillari o'tkazilgan



Markaziy harbiy klinik gospital, Harbiy tibbiyot akademiyasi, Toshkent harbiy okrugi, Milliy gvardiyaning harbiy tibbiyot mutaxassislari ishtirokidagi treninglar qizg'in fikr almashuvlar bilan davom etdi.

– Harbiy harakatlar vaqtida yoki kundalik hayotda jarohatlangan yoki tibbiy xizmatga muhtoj harbiylarga yordam ko'rsatish, dala gospitallari

ishini tashkil etish, yaradorlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish kabi masalalar bo'yicha bir necha yildirki, ilg'or xorij tajribasi va zamonaviy harbiy tibbiyot yutuqlari jiddiy o'rganilmoqda. Maqsad harbiy tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va kelgusi vazifalarni belgilab olish.

Dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyat

Baltrom ABDURAHIMOV

YANGI QONUN MOHIYATI

Keyingi yillarda mamlakatimiz mudofaasi, xavfsizligi va xalqimiz osoyishtaligini ta'minlash, zamona viy qurollangan hamda qudratli armiyani shakllantirish, harbiy xizmatchilarini va Qurolli Kuchlar tizimi xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shunday tizimli islohotlar va sa'y-harakatlar natijasida harbiy yo'nalihsdag'i davlat dasturlari ijrosini o'z vaqtida va samarali tashkil etish, harbiy xizmatchilarining hamda Qurolli Kuchlar tizimi xodimlarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, byudjet mablag'lari maqsadsiz sarflanishi holatlarining barvaqt oldini olish va sohadagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatish masalalari alohida dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Shu munosabat bilan **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrdagi tegishli farmoni qabul qilinib**, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururaturasi zimmasiga uning Qurolli Kuchlarda qonunchilik hujjatlariiga so'zsiz riyoga etilishi ustidan nazoratni kuchaytirishga, shuningdek harbiy prokuratura organlari, shu jumladan tashkiliy-shtat tuzilishiga va faoliyatiga doir boshqa masalalarga oid qator vazifalar yuklatildi.

Bosh prokuror va O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuroriga harbiy prokuratura organlariga harbiy xizmatga qabul qilish va undan bo'shatish, xodimlarga belgilangan tartibda harbiy unvonlar berish vakolatlari berildi.

Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari harbiy hay'atining, harbiy okruglar harbiy kengashlarining davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini, aholining tinch hayotini ta'minlashda qonuniylikni ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori va hududiy harbiy prokurorlar mas'uliyatini oshirish ko'zda tutildi.

Bir so'z bilan aytganda, bu kabi yangilik, o'zgarishlar hamda farmonda belgilangan qator vazifalar "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining tegishli normalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taqozo etdi.

Shundan kelib chiqib, yuqoridaq farmon tasdiqlangan, "Yo'l xaritasi" ijrosi doirasida



"O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida qonuniylikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda qabul qilindi hamda joriy yilning 31-oktabridan kuchga kirdi.

Mazkur qonunga ko'ra, harbiy unvonlar berish va oliy darajali harbiy unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etish Bosh prokuror vakolatiga kiritildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinnbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining:

- besh yillik vakolat muddati;
- yigirma besh yoshdan kichik bo'lmasisligi;
- xodimlarni muayyan lavozimlarga tayinlash va ozod etishdagi, shu bilan

birga, o'ziga bo'yusunuvchi xodimlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar, ko'rsatmalar, farmoyishlar chiqarish vakolatlari qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o'tash, prokuratura organlari hamda muassasalarining xodimlariga darajali unvonlar va harbiy unvonlar berish hamda ulardan mahrum etish, ularni rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish tartibi "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari va muassasalarida "Harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi nizomda, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlariada belgilanishi nazarda tutildi.

Umuman olganda, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning **9 ta moddasiga va jami 18 ta normasiga** tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Muxtasar aytganda, ushbu yangilik va o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida qonunlarning aniq va bir xilda ijo etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha harbiy prokuratura organlarining chinakam mustaqil faoliyati uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi borasida, shu jumladan byudjet mablag'larini va davlat mulkini talon-toroj qilish hollarining oldini olish bo'yicha ko'rileyotgan choratadbirlari samaradorligini yanada oshirishga zamin yaratadi.

**Adliya polkovnigi Shuhrat SANAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurururasi bo'lim boshlig'i**

✓ EKOLOGIYA

INSTITUTDA "YASHIL BELBOG"

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti sanitariya himoya hududida Mudofaa vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurururasi hamkorligida ekologik tadbir o'tkazildi.

Unda mudofaa vazirining o'rinnbosarlari general-mayor Hamdam Qarshiyev, polkovnik Zoirjon Bozorboyev, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori o'rinnbosari adliya polkovnigi Qahramon Isroilov, Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti direktori Ilhom Sodiqov mamlakatimizda tabiiy



institut jamoasi bilan birgalikda "Yashil makon" umummilliyligi loyihasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti sanitariya himoya hududida mevali va manzarali ko'chatlar ekildi.

– "Yashil makon" umummilliyligi loyihasi doirasida yashil hududlarni bosqichma-bosqich kengaytirish, ko'chat ekish tadbirlarida harbiy xizmatchilarimiz jonbozlik ko'rsatib, o'zlarining munosib hissasini qo'shmaqda, – deydi Mudofaa vazirligi bosh boshqarma boshlig'i polkovnik Xasan Xalilov. – Jumladan, bugungi



kungacha loyiha doirasida hudozlarning tuproq va iqlim sharoitiga mos jami 700 ming tup ko'chat o'tqazildi. 1-dekabrga qadar yana 100 ming tup ko'chat ekishi rejalaشتirganimiz. Bugun tong sahardan kashtan, archa, terak, qarag'ay, yapon sapurasi singari manzarali va mevali ko'chatlar yerga qadaldi. Ushbu jarayonda ko'chma madaniyat markazining kuy-ko'shiqlari tadbir ishtiroychilariga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Bunday xayrli tadbirlar atrof-muhitni yanada ko'kalamzorlashtirishga xizmat qiladi.

ekotizimlarni saqlash va tiklash, sanoat korxonalarini hududida "yashil belbog" yaratishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.


Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilarini, harbiy prokuratura xodimlarini tomonidan

Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV, "Vatanparvar"

Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV, "Vatanparvar"

O'QUV SIFATI SINOV DAN O'TKAZILMOQDA

Yurtimizda mudofaa salohiyatini oshirishga qaratilgan ko'plab amaliy ishlar olib borilmogda. Najot ta'linda ekanligini chuqur anglagan mas'ullar Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat faoliyatini o'tayotgan ofitser kadrlar bilan bir qatorda, oly harbiy ta'lif muassasalarida tahlil olayotgan kursantlarning zamonaviy bilim va malakalarini oshirib borish maqsadida eng so'nggi texnologiyalar bilan jihozlangan sinfonialarda sifatlari ta'limga e'tibor berib kelmoqda.



"Eng ilg'or oly harbiy ta'lif muassasasi" ko'rirk-tanloving joriy etilishi ham sog'lom raqobatni rivojlantirish, shaxsiy tarkibning harbiy salohiyati va ko'nikmalarini yanada yuqori pog'onaga olib chiqishdan iborat.

Ushbu ko'rirk-tanlovda ishtirok etayotgan navbatdagi muassasa O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi bo'ldi. Bugungi kunda respublikamizdagi eng nufuzli oly harbiy ta'lif muassasalaridan biri hisoblangan ushbu dargoh

105 yillik boy tarixga ega bo'lib, armiya saflariga har tomonlama yetuk, o'z kasbining mohir ustasi – haqiqiy ofitserlarni tayyorlab kelmoqda. Akademianing asosiy faoliyatlaridan biri, mudofaa sohasidagi ilmiy, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hisoblanadi. Bu yo'lda tinglovchi va kursantlarga 10 nafarga yaqin fan doktori, 40 dan ortiq fan yo'nalishi bo'yicha falsafa doktori, 50 nafarga yaqin ilmiy unvonga ega bo'lgan malakali professor-o'qituvchilar ta'lif-tarbiya berib kelmoqda.

Akademianing o'quv-moddiy bazasi va o'quv auditoriyalari eng so'nggi texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy trenajyorlar, laboratoriya, asbob-uskunalar va kompyuter texnikalari bilan jihozlangan.

"Eng ilg'or oly harbiy ta'lif muassasasi" ko'rirk-tanlov doirasida mudofaa vazirligi komissiyasi a'zolari harbiy ta'lif muassasasidagi professor-o'qituvchilar va kursantlarning harbiy va kasbiy mahoratlarini sinovdan o'tkazdi.

Ko'rirk-tanlov nizomiga ko'ra, doimiy tarkib va kursantlarning tayyorgarlik darajasi, o'quv, uslubiy, ilmiy va tarbiyaviy ishlar holati baholandi. Dala-o'quv maydonidagi jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari hay'at a'zolarining diqqat markazida bo'ldi.

Oly harbiy ta'lif muassasalarining barchasida mazkur ko'rirk-tanlov o'tib bo'lgandan so'ng ballar umumlashtiriladi hamda g'olib muassasa aniqlanadi. G'olib bo'lgan bilim yurti diplom va ko'chma kubok bilan taqdirlanadi.

**Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"**

1915-yil real bilim yurtini muvaffaqiyatlari bitiradi. 1915-yil iyulda Payshanba bo'lim pristaviga tilmoch bo'lib ishga kiradi va 1917-yil fevral inqilobiga qadar shu vazifada ishlaydi. Shundan so'ng bir muddat otasining do'sti Karmana begiga hamda 3 oycha Panjikent pristaviga ham tilmochlik qiladi.

Badriddin Sharipov 1917-yil aprelda Kattaqo'rg'onga keldi. Ammo bu gal jadid taraqqiyatparvarlarining "Sho'royi Islom" jamiyatini hududiy bo'limi rahbari vazifasi bilan qaytgan edi. U shaharda yangi ochilgan uyezd ozuqa kengashiga tarjimon bo'lib ishga kiradi. Bir oy o'tib, ozuqa kengashlari qurultoyida hay'at a'zoligiga saylanib, 1917-yil noyabrgacha shu ishda qoladi. 1917-yil noyabr-dekabr oylarida sovetlarning 1-qurultoyiga delegat sifatida chaqiriladi va ijroqo'm a'zoligiga olinib, tuman militsiysi boshliqligiga saylanadi. 1918-yil iyunda boshqa jadid taraqqiyatparvarlari qatorida so'l eserlar partiyasiga a'zo bo'lib, bolsheviklarning talonchilik va qonxo'rliklariga qarshi so'l eserlar partiyasi g'oyalarini targ'ib etishga kirishadi. Biroq Osipov isyonni bahonasida kommunistlar o'zining kechagi hamkor bo'lgan so'l eserlarga qarshi ham qirg'in qatag'oni boshtag yuboradi.

Badriddin Sharipov 1919-yil 4-fevralda kompartiyaga kirib, 1923-yilgacha Kattaqo'rg'on uyezd-shahar CHK (*Favqulodda komissiya*)ning kollegiya a'zosi, raisi, uyezd yustitsiya bo'limi mudiri, inqilobi tribunal qoshidagi jamoatchi ayblovchi, uyezd militsiya boshlig'i, ijroqo'm kotibidan uyezd boshqarma boshlig'igacha bo'lgan mas'ul lavozimlarda ish olib boradi. 1923-yil Samarqand viloyati partiya qo'mitasi tomonidan chaqirilib, avval Samarqand viloyati CHK raisi, undan GPU (*Davlat siyosiy boshqarmasi*) bo'lim mudiri lavozimiga qo'yildi. Bu vazifada ham ko'p qoldirilmay, Samarqand shahri militsiya boshlig'i lavozimiga tayinlanadi. Oradan bir oy o'tib, Samarqand uyezd xalq maorifi mudirligiga qo'yildi.

Badriddin Sharipov 1924-yilning iyun oyidan 1928-yilning 16-iyul kunigacha turli vazifalarda faoliyat yuritadi. 1928-yil 16-iyuldan 9-dekabrgacha O'zSSR Oliy sudi Prokurori lavozimida ish olib boradi. Ammo uning Oliy sud prokurori sifatida Oliy sud raisi Sa'dulla Qosimovga har jihatdan yordamchi bo'lishi markazga yoqmagani edi.

1928-yil oktabr oyida "Pravda Vostoka" gazetasida "El-Registan"ning "Mahr bilan kelin" nomli maqolasi chop etilib, unda Buxoro okrug sudi raisi Said Ahror Said Ahmedov faoliyatini tanqid qilinadi. Bu holatni tekshirish ishi O'zSSR Adliya xalq komissarligining muhim ishlar bo'yicha tergovchisi Ginzburgga topshirildi. Dunyoni ichkilik va o'yin-kulgiga almashtgan bu kimsa 9-dekabr kuni maqoladagi aybdorlar qolib, unda nomi biror marta eslanmagan O'zSSR Oliy sudi prokurori B. Sharipovni to'satdan hibsga olishga buyruq beradi va Buxoro turmasiga keltiradi. Shundan so'ng B. Sharipov bilan birgalikda sobiq Samarqand okrug prokurori yordamchisi Ergash Hamidov, Buxoro okrug sudi sudyasi Ahmad Abdiyev, samarqandlik sudyasi A'loxo'ja Mansurxo'jayev, Buxoro okrug sud a'zosi O'roq Saidov, sobiq Buxoro okrug sudi raisi Sayid Ahror Said Ahmedov, Buxoro okrug sudi kuryeri Ismoil Rajapovlar bilan birga Buxoroning Sultonobod qishloq sho'rosi, Chuquraki qishlog'idan qorako'l savdogari Sharifboy Zokirboev, uning o'g'li Muzaffar Sharipov, savdogar boylar Hojimurod Ro'zimurodov, Abdurashid Abduraufov, Bahrixon Nazarovalarga O'zSSR JKning 140, 146, 14-146, 268-moddalarini qo'llab, ayblov e'lon qiladi.

Voqeal shundayki, 1927-yil may-avgust oylarida xususiy savdoni cheklash bahonasida juda ko'plab do'konlarning mollari davlat foydasiga musodara etilib, ayrim do'kon egalarining ustidan jinoiy ish ochilgan edi. O'zbek savdoda qorako'l savdosi bilan shug'ullangan Sharifboy

AVVAL ORDEN BERILDI, SO'NG OTUVGA HUKM ETILDI

Badriddin Sharipov 1896-yil Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahrida dunyoga kelgan. U avval eski usuldagagi maktabda ilm olishni boshlab, keyinroq rus-tuzem maktabida tahsilni davom ettiradi. 1909-yili Samarqand shahridagi real bilim yurtiga o'qishga kiradi.

Zokirboev ham jarayonda qamoqqa olinib, Buxoro okrug sudi tomonidan 5 yilga hukm qilingan edi. Ammo 1927-yil iyulda qayta sudda o'zining aybsizligini isbotlaydi va ozodlikka chiqishga muvaffaq bo'ladi. 27-noyabr kuni apellyatsiya bilan musodara etilgan mulklarini ham qaytarish uchun qaror olishga erishadi. Biroq 1928-yil 24-yanvar, 4-fevral kunlari O'zbek savdo tashkilotida Sharifboy Zokirboevga nisbatan katta miqdordagi pul zarari haqida da'vo paydo bo'ladi. Mana shu asoslar bilan Ginzburg sobiq Buxoro okrug sudi raisi Badriddin Sharipov hamda prokuror Ergash Hamidovlarga nisbatan boylarni qo'llab-quvvatlash va pora olganlik kabi ayblovlarini rivojlantirishga kirishadi. So'roqqa tortilganlar kim bo'lmisin, yagona narsa – Badriddin Sharipovga qarshi ko'rsatma berish talab qilinadi. Ammo qanchalik harakat qilmasin B. Sharipovning aybini isbotlaydigan dalillar qo'lga kiritilmadi. Shundan so'ng sudni Buxoroda ko'pnинг ko'zidan uzoqda o'tkazishga qaror qiladilar. Vaholanki, o'zbek hukumati ham, xalq harkatta qiziqish bilan B. Sharipov ishi natijasini kutayotgan edi.

1929-yil 11-aprelda "Qizil O'zbekiston" gazetasida, "Buxoro sudchilari ustidan sud O'zbekiston Oliy sudining sobiq prokurori Sharifuf qora kursiga" nomli xabar bosildi. Unda "O'zbekiston Oliy Sudining muhim ishlarni ko'radurg'on tergovchisi o'rtoq Ginzburg, sud ishchilari ustidan bo'lg'an ishni tergab bitirdi. Shu ish bo'yinchalik sobiq Buxoro sudining raisi va keyingi vaqtida Oliy sudning prokurori bo'lib turg'on Sharifuf, Buxoro okrugi prokurori Xamiduf, Buxoro okrug sudining a'zosi Abdiyef, Mansurxo'jayuf, Saiduf, Sayidahmaduf va Buxoro boylaridan bir guruhi ayblanadi. Bular sud qonunig'a xilof bo'lg'an hukmlarni chiqorish bilan boy unsurlarni himoya qilishga va shu "xizmatlari" uchun pora olishda ayblanadilar. Oliy sud tomonidan yaqinda bularning ishi ko'rildi. Sud namunaviy bo'ladi. Mana shu munosabat bilan Buxoro mehnatkashlari ularning Buxoroda sud qilinishini talab etadir. Bu to'g'rida Buxoro okrug ijroqo'mining fraksiysi ham qaror chiqarib, sudning Buxoroda bo'lishini yuqori idoralardan so'radi", deyiladi. Shundan so'ng 1929-yil 1-7-may kunlari Samarqandda Ginzburg katta ishni boshladi. Yuqorida nomlari aybodor sifatida keltirilgan shaxslarning barchasi hibsga olinib, Buxoro turmasiga keltiriladi.

O'zSSR jinoyat sudi majlisiga 1929-yil 14-iyun kuni Buxoro shahrida ish boshladi. Sud boshlanishi bilan unga rais etib belgilangan Kupsov bir qator ishonchli guvohlarni rad etib, o'rniga o'zlariga kerakli bo'lgan odamlarnigina qoldiradi. Sud Kupsov raisligida 26-iyungacha davom etdi. O'ziga qanchalik tuhmatlar yog'ilmasin, B. Sharipov har bir holatda o'zining aybsiz ekanligini ishonchli dalillar asosida isbotlab boraverdi. Avvaliga boshqa ishtirokchilar ham o'ziga qo'yilgan ayblovlarini rad etdi. Biroq guvohlarni aylanlar ekan, vaziyat izdan chiqib ketdi.



Javoban B. Sharipov otasi politsiyachi emas, tarjimon, volost boshqaruvchisi bo'lganligini, 1914-yilden boshlab, ko'zi yaxshi ko'rmay qolgani hamda 1925-yilda vafot etganini aytadi. Guvoh Yakubovning yolg'on ko'rsatmalariga nisbatan Sharipov guvohning noxolis ekaniga to'xtaladi.

Sud davomida B. Sharipovga nisbatan milliy istiqlolchilarga (*bosmachi*) xayrixoh bo'lganlik, ularni quroq-yaroq bilan ta'minlaganlik ayblari ham qo'yiladi. Eng qizig'i, B. Sharipov shimming cho'ntagidan chiqqan arabiya yozilgan tumor uchun ham javob berishiga to'g'ri keladi. Bu qog'ozni nazarda tutib, sud a'zolarining "Siz Afg'oniston yoki Eronga jo'nashga harakat qilmaganmisiz?" degan savoliga B. Sharipovga 10 yil qamoq jazosi belgilandi.

Sudning qaroridan dahshatga tushgan B. Sharipov 1929-yil 22-iyulda O'zSSR Oliy sudi raisi va prokuroriga o'ziga nisbatan bo'lgan nohaqliq va tuhmatlar haqida mufassal yozadi. 1929-yil 31-iyulda Buxoro axloq tuzatish uyi mahbusi B. Sharipovdan deb O'zbekiston partiya va hukumat rahbarlariga ariza yozilar ekan, unda avvaliga o'zining aybsizligiga ishongani uchun hech kimga murojaat etmagani, ammo odil sud deb ishonganlari unga mavjud qonunlarga mutlaq zid holda tuhmat bilan 10 yil qamoq jazosini bergani ta'kidlanadi. U o'zining aybsizligini hujjalat asosida isbotlab beradi. 1929-yil 18-avgust sanasi bilan Samarqand axloq tuzatish uyi mahbusi Sharipov Badriddin O'zSSR Oliy sudi raisiga nusxasi O'zSSR Oliy sudi Prokuroriga deb boshlanuvchi murojaatida o'zining 1929-yil 22- va 29-iyul sanalaridagi shikoyatlariga qo'shimcha keltirib, sud ishida inobatga olinmagan 1927-yil 2-oktabrdagi va 1927-yil 8-oktabrdagi 117-tonli Buxoro okrug sudining qarorlarini ilova qildi. Shundan so'ng O'zSSR Oliy sudi raisi Sh. Irmatov, a'zolari Sayfudinov, Mo'minov va Kamilbayevlar O'z SSR MIQ Prezidiumiga imzolari bilan o'z munosabatlarini yozadilar. Unda sud ishini to'liq tahlil qilgan holda B. Sharipovga nisbatan tuhmat bo'lgani birma-bir isbotlab beriladi. Biroq hukumatning javobi juda qisqa va hech bir vaj ko'satilmasdan "sud hukmi o'z kuchida qoldirilsin" bo'lidi. Bu O'zSSR hukumatining emas, aslida Kremlning qarori edi. Albatta, ko'p o'tmay, bu teatrlashtirilgan sud hukmi o'z kuchini yo'qotdi. Hukm e'lon qilingan kishilar birin-ketin ozodlikka chiqib oldilar. Ammo Badriddin Sharipovni undan ham dahshatliroq sud kutayotgan edi. Endi uni aksilinqilobiy "Milliy ittihod" tashkilotining a'zosi sifatida Sa'dulla Qosimov ishiga asosiy shaxslardan biri sifatida kiritishadi.

Samarqandda ochilgan Sa'dulla Qosimov sud ishi 1930-yil 25-martda boshlanib, 21-iyungacha davom etdi. Mazkr sud davomida B. Sharipovni ashaddiy millatchi, aksilinqilobchi va "Milliy ittihod" a'zosi sifatida fosh etishga kirishdilar. Bu gal unga nisbatan qo'yilgan ayblovning aksariyati sobiq xorotining ukasi Asqar Yakubov tomonidan to'qib chiqarilgan edi. A. Yakubov sudda B. Sharipovning otasi Latif Sharipov chor hukumati davrida politsiyachi, turkiyalik mashhur harbiy sarkarda va siyosiy arbobi Anvar poshshuning tarafdiri va qo'llab-quvvatlovchisi bo'lgani haqida va Anvar poshsho vafot etganida "ideal darajadagi inson bo'lgan"ligini aytgandi, deb ko'rsatma beradi. Bunga



"JADID KULLIYOTI" NING BEBAHO SAKKIZ XAZINASI

Bir davr bo'ldi: o'n to'qqizinchasi asrning oxiri, yigirmanchi asrning boshlari... Yurtimiz go'zal o'g'il-qizlar bilan bir siylandi, bir siylandi. Biri-biridan aqlli, dono, zakiy. Ammo sovetlarning qattol qatag'on mashinasi ularni bizga ko'p ko'rdi.

Yaqinda hamkasbimiz Furqat Ergashev go'zal tuhfa olibdi. Bebaho tuhfani bizga ham ilindi. O'z navbatida, biz ham o'quvchilarimizga tavsya qilishga shoshildik. Bu "Zabarjad Media" nashriyotida nashr qilingan "Jadid kulliyoti"dir. Nashriyotni bu qutlug' ishi uchun qutlaymiz. Kulliyotning lotin yozuvida dunyo yuzini ko'rshida filologiya fanlari doktori Shahnoza Nazarova bosh-qosh bo'ldi. "Jadid kulliyoti"dan bebaho to'plamlar joy olgan. Aziz o'quvchilarimizni ortiqcha izohlar bilan chalg'itmaslik maqsadida uning ilk to'plami "Sabzazor"dan parcha keltirishni lozim topdik.

O'qiyimiz: "Taqdim etmoqchi bo'layotgan kitoblarimiz turli kutubxonalar, fond, arxivlar ichida Sizni uzoq kutdi. Ular 100–110 yil qanotida Sizdan ko'zini uzmadni. Bu kitoblarning millatimiz uchun shahid ketgan mualliflari Sizga oshiqdi. Yangi fikr zamoni keldi, eshlarni oching!"

Biz "Jadid kulliyoti" deya nomlayotgan bu dasta 100–110 yil avvalgi ilk nashridan buyon kitob holida qayta nashr bo'lmagan 8 kitobdan iborat bo'lib, bir yosh nashriyotning katta jasorati va olimlar jamoasining katta mehnati bilan birinchi marta joriy yozuvda, yana kitob holida chop etilmoqda. O'z tili, o'z bezaklari, o'z suratlari bilan. Biz ularning 100–110 yil avvalgi tilini saqladikki, Mahmud Koshg'ariy, Navoiy tiliga vorislik qilayotgan bir xalqqa bu tilni tushunish nima bo'pti. Shuningdek, sizga ko'mak bo'lsin uchun lug'at va izohlar bilan ham ta'minladik".

Ulug' ishga qo'l urilgan. Aziz o'quvchi, sizga bu kitoblarni qay taripa tavsya qilishni bilmay qoldim, ochig'i. Keyingi yillarda gazetalarda e'lon qilingan dolzarb, vaqt o'tsa-da, qimmatini yo'qotmaydigan badiiy va badiiy publisistik materiallarni to'plab, kitob holida chop ettirish an'anaga aylandi. Buni ilk dafa, adashmasam, "Zarafshon" gazetasi boshlab bergan edi. Buni yaxshi tomonlari ko'p ekan. Gazetaga oid ma'lum bir davr, tarix bir kitobga jo bo'ladi. Ezgu an'anani boshqa gazetalarimiz ham davom ettirdi.

Qarang-a, aslida bu gazetachilik tarixida mavjud bo'lgan an'ana ekan. 1914-yilda ulug' ma'rifatchimiz

Munavvarqori Abdurashidxonov jadid ziyorilari ta'sis etgan "Sadoyi Turkiston" gazetasini sahifalarida e'lon qilingan materiallar asosida bayoz tartib bergan ekanlar. "Jadid kulliyoti"ning sakkizta kitobidan eng birinchisi ana shu bayoz – "Sabzazor".

So'fizoda Muhammadsharifning shu to'plamga kiritilgan, "Sadoyi Turkiston"da e'lon qilingan "O'qunglar, onalar!" she'ridan parcha o'qiyimiz:

*"Muncha yomon sho'rladi peshonalar,
Qizlarimiz joriyayi xonalar,
Siz edingiz jonlara jononalar.
Qadrinchni bilmadi devonalar,
Qumri bilan bulbul-u bedonalar,
Yaxshi o'qur, siz ham o'qung, onalar!"*

O'qish, ilm olish ayol-qizlarimiz uchun bugun ham dolzarb emasmi?

Har gal jadid ziyorililar, ijodkorlar haqida so'z ketganida yosh avlodning ilm olishda biz katta avloddan anchagina omadliroq ekanini his qilaman. Sovet maktabini a'lo baholar bilan bitirdim, oylab paxta dalalarida vaqtim o'tgan bo'lsa ham. Ammo ana o'sha o'n yil davomida Abdulhamid Cho'lpion nomini ham eshitmaganim alamlidir. Shukurki, gazetalar bor ekan, tadqiqotchi olimlarimiz bor ekan, ularning maqolalari, ilmiy ishlarini o'qib, millatparvarlarimizni tanidim.

Bahrom Ro'zimuhhammadning Cho'lpion o'zbek ababiyoti bo'stonida hazrat Alisher Navoiydan keyin porlagan yulduz, degan fikrlarini o'qib, hayratga tushganman. Chunki u asossiz so'z aytmasligini, katta shoir, katta olim ekanligini bilar edim. Cho'lpion... uni bilmasdik, birorta ham kitobini qo'limda tutmagan edim... Afsus. Yuz yil berisida turib, ilk bor(!) sevimli shoirim Abdulhamid Cho'lpionning ilk to'plami – "Uyg'onish"ni qo'llimda tutib turibman. Bezaklari o'sha o'shamish, tili o'sha o'shamish, eski o'zbek yozuvidan hozirgi yozuvimizga keltirilibdi.

Kitobni varaqlay turib, hovliqib ketyapman. O'zi kitoblar orasida qolsam, hovliqib ketadigan

odatim bor. Sizga uning she'rlaridan qay birini ilinsam. "Sharq qizi"mi, "Men va boshqalar"ni yoddan bilsangiz kerak, "Kulmak istading"chi... "Bark" ham bor, uni juda yoqtiraman. Parcha berishga ko'zim qiymayapti, kattaroq she'r, ammo o'zingiz ko'rishingiz, o'qishingiz kerak-da...

Shunday qilib, "Bark"dan o'qiyimiz:

*"Jonlandi, yashardi, ko'kardi qarashim,
O'zimda bir turli erkinlik sezamen.
Ko'nglimda qolmad shu tinda g'am-g'ashim,
Umidning ipaklik qilini cho'zamen."*

*Ariqda suvlarning o'ynoqi qo'shig'i
Shoxlarda uxlag'on barglarni uyg'otdi.
Ayniqsa, shamolning u yumshoq sho'xlig'i
Shoxlarda barglarni titratdi, o'ynatdi".*

Turkiya jumhuriyatida shoirimiz ijodiga bo'lgan qiziqish meni hayron qoldirar edi. Bejiz emas ekan. Shoiring usmonlicha yozilgan she'rlarini o'qidim, to'plamda:

*"Qamar ziyosini do'kdi kecha
dolg'ali dengiza,
Gelir xayolima gechmish umr
ishq-u havas.
Yuzing ziyosini sarpsi kecha
bu so'luq bangza
Go'ngil talatma boshlar:
faqat yizinda qafas".*

Shoiring yana bir she'rlar to'plami – "Buloqlar". O'sha mashhur "Binafsha" shu kitobga kiritilgan ekan. Eslaysizmi, "Binafsha"ni?

*"Binafsha, senmisan, binafsha, senmi:
Ko'chada oqchog'a sotilg'on?
Binafsha, menmanmi, binafsha, menmi:
Sevgingga, qayg'ungg'a tutulg'on?
Binafsha, nimaga birozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzulding?
Binafsha, nimaga hidrlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho'zulding?"*

Bu she'rlardan keyin ortiqcha so'z yozgim kelmaydi. Imkon bo'lsa-yu, hammasi shu sahifaga joylansa. Aziz o'quvchilarimiz biladilar, kaminangiz adabiyotshunos emas, asl asarlarning, asl she'rlarning oshig'idir.

Cho'lpion tarjimalari ham mukammaldir! Hammagini sanab o'tishim shart emas. "Jadid kulliyoti"ning to'rtinchini kitobi Lolaxon Sayfullinaning o'zbek xotin-qizlari turmushidan olingan sochma she'rlari "Ichkari" nomi bilan Cho'lpion tomonidan tarjima qilingan. Lolaxon Sayfullina o'z davrining mashhur ijodkorlardan. "Ichkari"ni Cho'lpion nasrda chevrgan. Rus tilida bu asarning qimmati qay darajada bilmadim-u, ammo o'zbek tilida bu asar Cho'lponga mansubdek taassurot qoldiradi. Undan shoiring nafasi keladi. Asar tamoman mukammal bir qiyofa kash etgan.

"Mutarjimdan"da Cho'lpion yozadi:

*"Lolalar dardini onglagan Lola,
Lolalar tilidan qilibsen nola.
Men ham qalamimni alamga solib,
She'riy quvvatimni qalamga solib,
Nolangni qalbimga ko'chirdim, Lola,
Ey, lola tilidan qilg'uchi nola..."*

Cho'lponda so'z ketganida to'xtash qiyin. Adabiy hayotimizdag'i ulkan voqe'a – "Jadid kulliyoti" barchamizga muborak bo'lsin! Huzurli mutolaalar tilagi bilan

AMIR SHAYX NURUDDIN

Shayx Nuruddin (*Nuruddinbek*) jaloyir qavmining nufuzli vakili Saribug'abek oilasida tug'ilgan. U Amir Temur tarbiyalab, voyaga yetkazgan atoqli sarkarda, ulug' bek darajasiga ko'tarilgan lashkarboshilar silsilasida alohida o'ringa ega. Sohibqiron Shayx Nuruddinning ilm-fan, shariat va fiqh, ayniqsa harbiy san'atning mohiri bo'lgani sababli uni suyukli nabirasi Ibrohim Sulton mirzo ibn Shohrux mirzoning ustozni va murabbiysi etib tayinlagan.

1393-yilning 27-martida Sherzoq yaqinida Amir Temur va Muzaffariylar sulolasining nomdor vakili, Sherzoq sultanati egasi Shoh Mansur askarlari o'rtasida kechgan jangda Shayx Nuruddin Emlik nomi ostida mashhur bo'lgan jangchilari bilan qo'shin markazi (*g'o'l*) da joylashgan. Tarixdan yaxshi ma'lumki, ushbu muhorabada Shoh Mansurning halokati bilan yakunlangan.

1394-yilning qishida Nuruddinbek Sohibqironning oliy farmoniga muvofiq, ulkan lashkarga bosh bo'lib, itoat yo'lidan tashqari qadam qo'ygan Ko'histon tomon yo'l oladi. Ko'histon hokimi Sayyid Ali Shakiy arlot uning zARBASIGA Dosh berolmaydi. Nuruddinbek Ko'histon masalasini hal etib, ulkan o'ja bilan Temurbek qoshiga qaytadi.

1395-yilning 28-fevralida Sohibqiron chingiziyarning qudratni saltanatini qayta tiklash, nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yevropada o'z hokimiyatini o'rnatish niyatida Movarounnahr hududlariga ham ko'z olaytira boshlagan Dashti Qipchoq xoni To'xtamishni siyosat sahnasidan butunlay supurib tashlash maqsadida Kura daryosi yaqinidagi qishlovdan Darband sari yurishga chiqadi. Saodat va iqbol bilan safarga otlangan Amir Temur qo'mondonligidagi ulkan qo'shin 14-aprel kuni xon lashkari bilan ro'baro' kelgan. Terek daryosi bo'yida To'xtamishxon qo'shining qarshi kechgan dahshatlari jangda Sohibqironning hayoti jiddiy xavf ostida qolgan. Bu holatni birinchi bo'lib payqagan Nuruddinbek ellik nafr askari bilan o'q-yoylarni qo'liga olib, Sohibqiron hayotiga qasd qilishga jon-jahdi bilan urinayotgan g'ananni o'qqa tutgan.

Jang avvalida dushmandan o'ja olingen aravalari bir-biriga bog'lanib, ularning yordamida Sohibqiron atrofida o'ziga xos mudofaa istehkomi barpo etilgan. Nuruddinbek va unga o'z paytida madad qo'lini cho'zgan Muhammad Ozod, Alishor, To'kal bavurchi, Allohdod, Husayn Malik qavchini, Ziyorak kabi amirlarning sadoqati, jasorati va matonati tufayli Amir Temur yov tajovuzidan omon qolgan edi. Janggohni tark etgan To'xtamishni ta'qib etish, uning yurtini yer bilan yakson qilish uchun Sohibqiron 1396-yilning boshida Shayx Nuruddinbekni Pir Muhammad mirzo ibn Jahongir mirzo, Jahonshohbek va amir Oqbug'abekning o'g'li Temurxoja hamrohligida Saroy Berka shahrini g'orat qilishga jo'natadi.

Tashkilotchilik va sarkardalik tajribasi va faoliyati yuqori darajaga ko'tarilgan Nuruddinbek 1396-yilda Fors viloyatidan undirilishi lozim bo'lgan soliq, xiroj kabi to'lovlarni tartibga solish uchun Sherzoq yuborilgan. 1398-yilga qadar ayni vazifa bilan mashg'ul bo'lgan Nuruddinbek ushbu yilning avgustida Hindiston yurishiga otlanib, Kobul shahri yaqinida dam olishga to'xtagan Sohibqironga katta miqdorda tuhfa va sovg'a-salomlar olib kelgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy bu voqeani quyidagicha bayon etadi:

"Ushbu mahalda Shayx Nuruddin... tuhfalar kelturub, otlar va vuhushlar va tevalar va xachirlar va raxt-u qumosh va oltun tikishlik to'nlar va charqoplar va murassa kamarlar va jibalar va saropardalar va xayma va xirgohlar va saqratot-u muxammal chodirlar va shimiyonalar va anche nima kulturistik, aql hayron bo'ur erdi". Tarixnavisning ta'kidlashicha, atoqli bek keltirgan mollarni devon xizmatchilari uch kun davomida ro'yxatga kiritishgan.

Panipatda Sohibqiron va Hindiston hukmdori Sulton Mahmudxon o'rtasida sodir bo'lgan muhorabada Nuruddinbek Shohmalikbek hamda Allohdodbek hamkorligida Movarounnahr qo'shining hirovul(lig'or qismida turgan va jangning zafarli tugashiga munosib ulush qo'shgan. Har uchala nomdor lashkarboshining aynan ilg'or qismiga qo'yilishi bejiz emas. Zotan, harb ishidan ma'lumki, har qanday yirik jangda dastlabki kuchli zarba birinchi galda ilg'or qismiga beriladi. 1399-yilning 10-yanvarida Gang daryosi tomon yurgan Amir Temur o'g'ruq(boz)ni boshqarish vazifasini Shayx Nuruddinga topshirgan. Bek bu ishni ham yuqori saviyada uddalagan edi.

G'arb sari qilingan yetti yillik yurishda Nuruddinbek o'ta faollik ko'rsatgan. U 1400-yilning 22-avgustida Sivosdan Rumga qaytayotgan Boyazid Yildirimning o'g'li Kurash va turk sarkardasi Temurtoshni ta'qib etishga belgilangan Sulaymonshoh, Jahonshoh, Sevinchak, Sayyidxojayi Shayx Ali bahodir va Donaxoja kabi beklar safidan o'ren olgan. Bu sarkardalar Qaysariyadan o'tib, turk sultoni cherikini tor-mor etgan, sonsiz mol, o'la olib, mansur qo'shinga kelib qo'shilgan. Shomning Halab, Hama, Ba'albaka kabi shaharlarini zabt etgan Sohibqiron 1400-yilning dekabrida Nuruddinbekni Sevinchakbek va Shohmalikbek hamrohligida o'ttiz ming jangchiga bosh qilib, Damashq tomon jo'natgan. 1401-yilning martida Tadmur shahrida yashiringan g'animlarni jazolashga tayinlangan Nuruddinbek Bag'dod fathida (1401-yilning avgust oy) Mironshoh mirzo rahbarligidagi qo'shin sarkardalari safidan o'ren olgan va shahar devoriga shotilar yordamida birinchi bo'lib chiqqan va yana mardlik namunalarini ko'rsatgan.

1401-yilning qishini Qarobog'i Arronda o'tkazishga qaror qilgan Amir Temur qarorgohiga Samarqand cheriki bilan kelayotgan Muhammad Sulton mirzoni Nuruddinbek Shohrux mirzo, Sulaymonshohbek, Jahonshohbek, Shohmalikbek va boshqa amirlar qatori Ag'loq daryosi yoqasida kutib olgan. Janubiy Gurjistondagi Tartum qal'asini olti kun ichida olib, uni yer bilan teng qilgan Shayx Nuruddin, Shohmalik, Musa To'ybug'a, Saodat Temurtosh, Temur Malik singari beklar Sohibqironning tahsiniga loyiq topilgan edi.

Iroqi arabning mashhur qal'alaridan hisoblangan Kamohni olish, berk yerlar va g'orlarda yashiringan g'anim kishilarini mutte qilihsda ham nomdor bek o'ta

faol harakat qilgan. Horuk qal'asini egallash amaliyotining ham aynan Shayx Nuruddin va Burunduqqa tayin qilinishi Sohibqironning bu beklarga bo'lgan yuksak ishonchidan dalolatdir.

Anqara jangida Nuruddinbek qo'shining Mironshoh mirzo qo'mondonligidagi so'l qo'l (*juvang'ar*) da joylashgan. Sharafuddin Ali Yazdiy ushbu muhorabada barcha sarkardalar, amirzodalar singari Shayx Nuruddinbek hamda Burunduqbekning ham yaxshi ishlar qilganini alohida ta'kidlagan.

1403-yilning boshida Janubi-g'arbiy Anado'ludagi Egridir hamda Nasibin qal'alarini fathida qatnashgan Nuruddinbek shu yilning yozida Gurjiston viloyatlarida yetilgan donni yig'ishtirish ishiga mas'ul etib belgilangan. 1403-yilning 27-sentabrida Shohmalikbek va boshqa sarkardalar bilan birgalikda Abxzani chopgan Nuruddinbek muzaffar va mansur qaytib, Sohibqironga qo'shilgan.

Amir Temur Xitoy yurishiga chiqib, O'trorga kelgan paytda ulug' beklardan Shayx Nuruddin, Berdibek, Shohmalik, Xoja Yusuf uning qoshida mulozamatda edi. Sohibqiron vafotidan keyin Shayx Nuruddin Temurbekning vasiyatiga sodiq qolgan va boshqalarni ham shunga da'vat etgan. Samarqand taxti Xalil Sulton tomonidan egallangach, Nuruddinbek amir Shohmalik, Ulug'bek mirzo, Ibrohim Sulton mirzo hamda Temurbekning haramlari hamrohligida Buxoroga kelgan va shahar mudofaasi bilan mashg'ul bo'lgan.

Padari buzrukvori vafotidan keyin mirzolar orasida taxt uchun boshlangan kurashga barham berish maqsadida Hirotan Movarounnahrga otlangan Shohrux qo'shini Andxuddan o'tib, Amudaryo yoqasiga yetgan kezda Shayx Nuruddin o'z lashkari bilan kelib mirzoga qo'shilgan va Hirot sipohi adadini yana ham orttirgan. Shohrux mirzo Nuruddinbekni Xalil Sulton huzuriga og'a-inilik shartlariga qat'iy riyo qilish, dashmanlarga birgalikda qarshi kurashish, mamlakat ravnaqi va osoyishtaligini saqlash kabi mazmundagi so'zlarni yetkazish uchun elchi sifatida jo'natgan. Nomdor amir Xalil Sulton huzurida har ikki tomon muhabbat qoidalarini yaqinlashtirish va har ikki taraf orasida do'stilik bog'ichlarini mustahkamlash borasida ko'p jid-u jahd ko'rsatgan.

Shohruxning Shayx Nuruddinga nisbatan hurmat-u e'zozi juda yuqori bo'lgan. Ushbu mulohazani quyidagi dalil bilan isbotlash mumkin. 1409-yilning 16-mayida Shohrux mirzo elchisi Laduniyo tarxon orqali Xudaydodga maktub yo'llab, undan o'zini nima uchun chetga tortayotgani, nega ittifoq bo'lmayotgani sababini so'raydi. Xudaydod Shayx Nuruddin band qilingan taqdirdagina Shohruxga qo'shilishi mumkinligini izhor etadi. Bunday javobdan g'azabga kelgan Shohrux Xudaydodga qarshi jang qilish maqsadida yurishga otlanadi.

Samarqanddan chiqib, O'ratega yaylovini manzil qilib turgan Shohrux Xudaydoddan: "Agar amir Shayx Nuruddin bu tarafga kelsa, har nimaning maslahati ko'rilsa, shunga kelishamiz", mazmunidagi xabar olgach, Nuruddin Xudaydod qoshiga jo'natgan. Biroq Xudaydodning Jata hukmdori Sham'i Jahon tomonidan Toshkent atrofida qatl qilinishi bois Nuruddinbek Shohrux qarorgohiga qaytgan hamda mirzodan o'z tasarrufidagi viloyatni mo'g'ullar bosqinidan ehtiyyot qilish maqsadida ekani, agar ijozat bo'lsa, viloyatiga jo'nashini bayon etadi. Shohrux tezda qaytib kelish sharti bilan Nuruddinbekka ruxsat beradi. Viloyatiga borgan Nuruddinbek tayin

qilingan muddatda Shohrux qoshiga qaytib kelmaydi. Shohruxning mavlono Qutbuddin Qarumi hamda amir To'kal Qarqara orqali amirning qaror qilinganiga qaramay, kechikishining sababi nimada ekanligi so'roviga Nuruddinbek Shohruxning qo'shini Xurosonga qaytgandan so'ng albatta, Ulug'bek mirzoning xizmatida hozir bo'lishini bildirgan.

Ayni shu pallada Nuruddin Allonko'h tarafidan kelgan Xalil Sulton mirzoga qo'shilgan. Nuruddinning uzridan qoniqmagan Shohrux yurish jilovini uning tarafiga buradi. Ikki tomon elchilar sa'y-harakati natijasi o'laroq, O'troning Uzunato mavzesida Shohrux va Xalil Sulton o'rtasida bitim tuzilib, Mavarounnahr va Turkiston mamlakati Ulug'bek mirzoga berilgan chog'da Nuruddinbek ham shu yerda hozir edi.

Temuriy mirzolar o'rtasida taxt uchun boshlangan kurash Sohibqiron ishonchini qozongan atoqli sarkardalar o'rtasiga ham raxna solgan edi. Chunonchi, Temur saltanatining qaror topishida ulkan ulush qo'shgan, yirik janglarda matonat va qahramonlik ko'rsatgan, ko'pdan ko'p harbiy amaliyotlarni bir tan-u bir jon bo'lib amalga oshirgan Shohmalikbek va Shayx Nuruddin orasidagi murosasiz qarama-qarshilik shu tufayli sodir bo'lgan edi.

1410-yilning 21-aprelida Qizilrabot yaqinida Shayx Nuruddin amir Shohmalik lashkariga shikast yetkazgach, Samarqandga yo'l olgan. Lekin Samarqand ahli uni shaharga kiritmagan. Shu yilning iyundida Shayx Nuruddin Samarqand tashqarisida ikkinchi bo' Shohmalik ustidan g'olib kelgan. Oradan bir oz vaqt o'tgach, Shohrux mirzo qo'shining qarshi Qizilrabot va Obi Yom (*Yom suvi*) atrofida qilingan to'qnashuvda Nuruddinbek mag'lubiyatga uchrab, Hisori Shodmon sari yo'iga chiqqan. 1411-yili Sabronda turgan Nuruddinbek ikkinchi marta Shohruxga qarshi isyon ko'targan. Ushbu isyonni bostirish, uni qo'lg'a tushirish maqsadida amir Shohmalikning Sabron tomon qo'shin tortganidan xabar topgan Nuruddinbek zudlikda mo'g'ullar huzuriga ketgan. Mustaqil siyosat yuritish iddasida yurgan Nuruddin Shohmalik boshliq lashkarning ortga qaytib ketganidan so'ng o'zini erkin sezib, bamaylixitir Sabronga kelayotgan chog'da Xudaydodi Husayniyning o'g'li Abdulxoliq pistirmasiga duch kelgan. Abdulxoliqning qo'qqisdan qilgan hamslasi tufayli Nuruddinbek askarlari tarqalib ketgan. O'ttiza otliq bilan Mo'g'uliston hukmdori Muhammadxon qarorgohiga yo'l olgan Nuruddinbek xonni Shohmalik elchilarini hibsga olish, Sham'i Jahon qo'mondonligida o'n besh ming kishilik cherikni Movarounnahrga qarshi yurishga undagan.

Ma'lum vaqtidan keyin Nuruddinbek sulh tuzish so'zini o'rta ga solib, Shohmalikbek bilan uchrashgan. Ammo sulh qaror topmagan. Nuruddinbekning sulh tuzmasligiga iqror bo'lgan Shohmalik hiyla yo'liga o'tgan va Hurdaqoq ismli navkarini Nuruddinbekni bir yoqlama qilish uchun uning huzuriga yuborgan. O'ylangan tadbirdan mutlaqo bexabar Nuruddinbek ulovdan tushib, bir necha bor ta'zim qilgan Hurdaqoq bilan ko'rishmoqchi bo'lgan pallada Hurdaqoq atoqli bekni otdan yiqitib, boshini tanidan judo qilgan. Ibn Arabshohning ta'kidlashicha, Shohrux ushbu xabarni eshitgach, qattiq azyiat chekkan, Shohmalikni la'natlagan, Hurdaqoq(Arg'udoq)ni esa o'ldirib, elga sazoyi etgan.

**Hamidulla DADABOYEV,
Mudofaa vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi a'zosi,
professor**

MAHMUD AL-CHAG'MINIY DONISHMANDLAR MASKANINING DARG'ASI



"Yevropaliklar Sharq ilm-fani kashfiyotlari ustiga o'z taraqqiyotini tikladilar. Bu borada yevropalik olimlar ulug' alloma Mahmud al-Chag'miniy nomini ehtirom bilan tilga oladilar. XII asrda yashagan bu alloma antik davr yunon, rim, grek, misr, hind olimlari asarlarini o'rta asr O'rta osiyolik allomalar asarlariga chog'ishtirish orqali dunyo fanida yangi qiyosiy usulga asos soldi. Shu bilan birga, fanda nazariyani amaliyotga yaqinlashtirdi. Shuning uchun XIV asrdan keyin Sharq, XVII asrdan so'ng yevropalik olimlarning e'tiboriga tushdi".

XIX asrda yashab o'tgan nemis olimi Vilgelm Rudolfning bu e'tirofi Sharq ilm-fani taraqqiyotiga berilgan yuksak baho edi. Shunday ekan, nemis olimi tilga olgan Mahmud al-Chag'miniy kim? U ilm-fanda yaratgan kashfiyotlar nimaldandan iborat? Undan qanday ilmiy meros qolgan?

Tarixiy bitiklarda yozilishicha, Mahmud al-Chag'miniyning to'liq ism-sharifi Mu'ayyaniddin Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Umar as-Samarqandiy al-Xorazmiy al-Chag'miniy bo'lib, u Xorazmning qadimiy poytaxti Gurganj yaqinidagi Chag'min kentida dunyoga kelgan. Mirzo Ulug'bekning ustozи Qozizoda Rumiy asarida bu xususda "Chag'min Xorazmning ulug' allomalar yashab o'tgan va Mahmud al-Chag'miniy tug'ilgan joy nomi", deb aniqlik kiritadi. Uning tavallud sanasi ma'lum emas. Muarrixlar uning ulug' allomalar Najmuddin Kubro va Sirojiddin Sakkokiyl bilan tengdosh bo'lganligi haqida ma'lumot beradilar. U dastlab Chag'minda, keyin Gurganjda madrasalarda ta'lim oladi. Nomidagi as-Samarqandiy nisbasi uning bu shaharda yashab, madrasada o'qiganligi va faoliyat yuritganligini bildiradi.

U yoshligidan mashhur allomalgarda shogird tushib, astronomiya, matematika, geometriya, geografiya fanlarini o'rGANADI. Ilm yo'lidagi ishtiyobi tufayli u arab, fors, yunon, rum, grek, lotin tillaridan ham mukammal saboq oladi. Ko'p tilni bilishi ilmiy salohiyatini yanada yuksaltiradi. Zamondoshlari uning o'z davrida ilm ahlining peshvosi bo'lganligi, Gurganj va Samarqand madrasalarida mudarrislik qilganligi haqida yozib qoldirganlar. Alloma 1221-yilda Gurganj shahrida vafot etadi. Mahmud al-Chag'miniyning hayoti va ilmiy faoliyati XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar davlatining gullab-yashnagan davrida kechadi. Bu davrda Xorazm, tarixiy manbalarda aytishicha, "Sharq ilm ahllarining va donishmandlarining orom topadigan ijod maskaniga aylangan".

Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdining bobolari Otsiz, El-Arslon, Takash va otasi Olovuddin Muhammad davrida Gurganjda bag'riga mingga yaqin allomalarni, ijodkorlarni jamlagan "Donishmandlar uyi" faoliyat yuritgan. Xorazmda rasadxona tiklatgan va unda ilmiy kuzatishlar olib borgan Mahmud al-Chag'miniy esa "Donishmandlar uyi"da allomalarining yo'boshchisi hisoblangan. Ulug' ishlarning boshida turgan. Shu sababli barcha allomalar Mahmud al-Chag'miniyning XII–XIII asrlar ilm-fanining tayanchi, darg'asi deb e'tirof etadilar.

Alloma ilmiy faoliyati davomida ko'plab asarlar yaratgan. Muarriz Ibn al-Fuvatning 50 dan oshiq asarlar nomlarini keltiradi. Lekin bugungi kungacha asarlarining niyoyatda oz qismi to'la saqlangan holda yetib kelgan. Shular orasida "Mulaxxas fil-hay'a ul-basta" ("Astronomiya haqida kichik to'plam"), "Saylanma", "To'qqiz sonining riyoziyotdagi o'rni haqida risola", "Merosni bo'lish masalalarida riyoziyot usullariga sharh", "Qonuncha" asarlarini alohida o'rinn tutadi. Mahmud al-Chag'miniy fanning turli sohalariga oid asarlar yaratari ekan, ilmda o'ziga xos yangilikka qo'l uradi. U antik davr olimlari Ptolemy, Platon, Yevklid, Epikur, Menelay, Galen asarlarini o'rganib chiqadi. Ayni paytda, Muhammad al-Xorazmiy, Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, ibn Iroq singari allomalar asarlarini ham tadqiq etadi.

Yunon va Sharq allomalarining fanning turli sohalaridagi ilmiy qarashlarini o'zaro qiyoslab, chog'ishtiradi. Ularning yutuq va kamchiliklarini umumlashtirib, fanda yangi ilmiy kashfiyotlar yaratadi. Dunyo ilm-fanida o'rta asr Sharq allomalarining antik davr olimlari asarlariga ma'lum bir munosabatlari shakllangan edi, lekin ularni o'zaro chog'ishtirib, qiyoslab tadqiq etish to'la ma'noda Mahmud al-Chag'miniydan boshlanadi. Bu dunyo fanning keyinchalik yagona ilmiy yo'nalishda rivoj topishiga asos bo'lib xizmat qildi. Allomaning fan olamidagi xizmati bu bilan cheklanmaydi. U o'z davrinining

barcha fanlari erishgan yutuqlarni jamlab Sharq tarixida birinchi bor qomus yaratish an'anassini boshlab berdi. G'arbda esa qomus yaratish XVIII asrdan keyin paydo bo'ldi. Qomus yaratish nafaqat Sharqda, dunyo miqyosida ham kamdan kam olimlarga nasib etgan.

Mahmud al-Chag'miniyning "Mulaxxas fil-hay'a" asari astronomiya ilmidagi yirik tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Asar muqaddima va ikki qismidan iborat. Birinchi qismida osmon sferasi, koinotdag'i sayyoralar, yoritqichlar harakati, yulduzlar joylashishi haqida, ikkinchi qismida Yerning kengligi, uzunligi, obod joylari, ularning tabiyi xususiyatlari, zaminda fasllarning almashinishi, kecha va kunduzlarning yuzaga kelish sabablari xususida so'z yuritiladi. Ma'lumki, XII asrda qadar astronomiya va geografiyaning bu sohalari yunon, italyan, hind va O'rta osiyolik ko'plab olimlar tomonidan tekshirilgan. Ma'lum ilmiy xulosalar ham chiqarilgan. Mahmud al-Chag'miniy esa bu tekshirishlar va xulosalarini o'zaro qiyoslaydi. Qiyo slash natijasida yuzaga kelgan ilmiy fiqrarni o'z tajribalari, kuzatishlari asosidagi xulosalarga taqqoslaysidi.

Oqibatda fan olamida kutilmagan yangi kashfiyotlar yuzaga keladi. Masalan, u Yer, Quyosh, Oy va boshqa sayyoralar hammasi harakatda degan xulosaga keladi. Yer o'z o'qi atrofida sutkada bir marta aylanishini ilmiy jihatdan isbotlaydi. Ya'ni sayyoralarining o'z o'qi atrofida va koinotda aylanishini ochib beradi. Allomaning yana bir kashfiyoti o'sha davr fan olami uchun yangilik edi. U quyoshni yorug'lik manbayi, deb biladi. Oy esa yorug'likni quyoshdan oladi, shu ma'noda quyoshni osmoniy jismlarning markazi deb ataydi. Ma'lumki, o'sha davrda barcha olimlar Yerni koinotning markazi deb ataganlar. Bu fanda geotsentrlik ta'limot edi. Mahmud al-Chag'miniy esa koinot markaziga quyoshni qo'yadi. Ushbu g'oya keyinchalik fanda ilmiy asoslangan geliosentrik ta'limot uchun negiz bo'lib xizmat qiladi.

Alloma ko'plab asarlarini orqali geografiya, geodeziya, arifmetika, riyoziyot fanlarining rivojiga ham katta hissa qo'shdi. U "Zaminda yuz beradigan barcha hodisalar koinotdag'i o'zgarishlar bilan bog'liq, shuning uchun samoviy harakatlarini mukammal bilish kerak", degan xulosaga keladi. "To'qqizliklar arifmetikasi" asarida astronomiya ilmi muammolarini riyoziyot, matematika fani asosida hal qilishga intildi. Uning ilmiy izlanishlari tufayli doiraviy trigonometriya asoslarini ishlab chiqildi va qoidalari yaratildi. Unda doiraviy uchburchak va uning xilma-xil turlarining to'la ta'rifi beriladi. U ilm-fan tarixida ilk bor ufqiy tekislikdag'i kuzatish joyining asosi bo'lgan koordinatalar sistemasi qoidalari ishlab chiqadi va amaliyotga tatbiq etadi. Allomaning riyoziyot faniga oid bunday ilmiy yangiliklari ko'p. U ilm sohasida salaflari boshlab bergen ishlarni yakuniga yetkazib, kashfiyotlar yaratdi. Shu sababli alloma Muhammad Avfiv "Garchi ungacha ham samoviy jismlar haqida ko'plab kitoblar

yozilgan bo'lsa-da, ularda bu sohaga oid asosiy masalalar yechimini topmagan, chuqr yoritilmagan edi. Mahmud al-Chag'miniy astronomiya ilmida barcha muammolarga yechim topdi", deb xulosa chiqaradi. Mahmud al-Chag'miniyning falsafiy qarashlari, xususan tabiatshunoslik sohasidagi fikrleri, g'oyalari ham fan olami uchun yangilik hisoblanadi. U "Tabiat har qanday harakat va sokinlikning manbayi. Shu bilan birga, tabiat tabiyi kuchga ega, bu kuch uning faolligini zaruratga aylantiradi, uni doimiy harakatga keltiradi. Modda va shakl tabiatni yaratadi", deydi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda fanda mashoiyunlar falsafasi deb nom olgan qadimiy yunon olimlari ta'limotiga ko'ra, modda va shakl qanchalik bir-biriga bog'liq bo'lmasin, ular biri ikkinchisidan ajraladi, degan g'oya yetakchilik qilgan. Al-Chag'miniy esa ular g'oyalarini rad etib, modda va shakl bir-biridan ajratib bo'lmaydigan darajada birikib ketgan, deydi. U tabiatda birlamchi zarracha – modda, ikkilamchi zarracha moddaning kichik bo'laklari, ular ajralmasdir, degan xulosaga keladi. Allomaning bu fikri keyinchalik fanda atom va uning molekulalari mavjud degan g'oyaning, ilmiy nazariyaning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Alloma "Qonuncha" asarida tib ilmiga oid inson fiziologiyasi, kasallikni aniqlash, jarrohlik, mijozlar, dorishunoslik sohalari bilan birga kasallikning oldini olish borasida jismoniy tarbiya, sog'lom ekologik muhit, musaffo havo, toza ichimlik suvi, sayr-u sayohat odam hayoti uchun niyoyatda zarurligini isbotlab berdi. Uning bu ilmiy qarashlari barcha davrlarda o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Allomaning asarları XIII asrdan boshlab Sharq mamlakatlari madrasalari, ilm-fan maskanlarida dasturilamal bo'lib xizmat qilgan. Marog'a, Mirzo Ulug'bek rasadxonalarida samoviy kuzatishlar uning ilmiy xulosalaridan foydalangan holda olib borilgan. Samarcanda Mirzo Ulug'bek madrasasida astronomiya ilmi Mahmud al-Chag'miniyning "Mulaxxas fil-hay'a" asari asosida o'qitilgan. Mahmud al-Chag'miniy asarları qo'lyozmaları dunyoning 20 dan ortiq shaharlari xazinalarida saqlanadi. Ular arab tilidan nemis, fors, rus, ingliz, fransuz, hind, turk va boshqa tillarga o'girilgan. Alloma asarlariga 30 dan ortiq sharh va hoshiyalar bitilgan. Uning asarlarini yevropalik olimlar e'tiboriga XVII asrdan keyin tushdi. "Chag'min ilmi".

Endilikda dunyo olimlari ana shu tushuncha ostida mashhur alloma Mahmud al-Chag'miniy ilmiy merosini e'tirof etadilar. Tarix bag'rida, olis o'tmish sahifalarida yurtimiz, xalqimiz va dunyo ilm-fani ravnaqi uchun hayoti, ilmiy faoliyatini bag'ishlagan buyuk ajodolarimiz ko'p. Endilikda ularning ilmiy meroslarini tadqiq etish, nomlarini abadiylashtirish bugungi avlod oldidagi vazifalardan biri sanaladi. Mahmud al-Chag'miniy ham ana shunday ilm-fan sohasida o'z ilmiy tadqiqini kutayotgan ulug' siymo, buyuk alloma hisoblanadi.

AMIR TEMURning *jang taktikasi*

Jang elementlari yoki xususiyatlari jangovar harakatlarga ta'sir ko'ssatar ekan, u qo'shinlar kuchini oshiradi yoki pasaytiradi. Urushlar tarixidan shunday kurashlarni misol keltirish mumkinki, unda sarkardalar jang olib borishda joy xususiyatlardan mohirona foydalangan holda kuch jihatdan bir necha barobar ustun bo'lgan dushman ustidan g'alaba qozonganlar.

Ya'ni jangovar vazifalarning muvaffaqiyatlari bajarilishi, qo'shinlarning yuksak jangovar mahorati, ularning har qanday joyda jang qila olish qobiliyati, kurashlarda hududlar tabiiy sharoitini sinchiklab hisobga olish va g'alabaga erishish maqsadida ulardan puxtalik bilan foydalanilganligi bilan bog'liq.

Amir Temur jang o'tkaziladigan joyning asosiy taktik xususiyatlari – joyning o'tish imkoniyati, kuzatish sharoiti, niqoblanish va himoya xususiyatlari, joydagisi o't ochish sharoitlariga e'tibor bergan. Shu bilan birga faslning va kunning qaysi paytida jang maydoniga kirishni rejalashtirgan.

Misol uchun, 1356-yili Amir Qazag'onning Xurosonga yurishi davomida, 21-yoshli Temurni yo'l boshlovchi (*hiroval*) qilib tayinlaydi. Yosh Temur Gozurgoh yerida joylashgan bir balandlik ustiga chiqib, jang olib boriladigan joyni ko'zdan kechirib, Amir Qazag'onga joyning topografik elementlarini va past balandligini, joyning taktik xususiyatlarni ko'ssatgan va quyoshning holatini ham hisobga oлган. Quyosh Amir Qazag'on qo'shinini orqa tarafidan chiqib, dushmanning ko'zlarini qamashtirgan.

Amir Temur 1391-yil 18-iyun kuni Qunduzcha daryosi bo'yida (*Samara viloyati*) Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi yurish qildi. Har ikki tomondan 200 mingdan ortiq askar ishtirot etgan. Sohibqiron jang boshlanmasdan oldinroq tashabbusni qo'liga oladi va To'xtamishni o'ydim-chuqur joylar (*notekis joy relyefi*) hamda daryo hosil qilgan jarliklar (*o'pqonlar*) orasidagi noqulay joyda qo'shin tuzishga majbur etadi.

Ha, Amir Temur dushman qo'shinlarining ko'ngliga xavf solish, qo'rqtish, chalg'itish va o'zining kamsonli jangchilarini ko'p qilib ko'sratish maqsadida joyning topografik elementlaridan juda ustalik bilan foydalangan. Dushmanga yaqin joylardagi qo'mondonlik tepaliklarga chiqib, har joylarda o't yoqishgan yoki har bir otliqqa ikkitadan daraxt shoxini yoniga osiltirib bog'latib, yo'lga tushirgan va joyning tuproq qatlamida chang-u to'zoni osmonga ko'tarilganligini ko'rib, ko'p lashkar kelayotgan ekan deb ishontirgan. Har bir jangda yil fasli, kunning qaysi qismi va ob-havo sharoitlari hisobga olingan.

Lekin shunga qaramasdan, Loy jangida (1360-yil 16-iyun)

to'satdan havo o'zgardi: osmonni bulut qoplab, yomg'ir yog'a boshladi. To'nlar va etiklar suvgaga qarq bo'ladi, sallalar boshga og'irlik qilib, loy va balchiqning ko'pligidan otlar joyidan qo'zg'alolmay qolishgan.

1375-yil 26-dekabrda Amir Temur qo'shini Mo'g'ulistoniga yurish qilganda Qatavon mavzesiga yetganida qahraton qishning sovug'dan ko'p odamlar va ot-ulovlar nobud bo'ladi (*hattoki tomirlardagi qon muzlab qolgan*). Shu sababli qo'shining jang olib borish qobiliyati pasayib ketadi, jangchilar, otlar va chorva hayvonlarini issiq joyda saqlab turish imkonini kamayadi. Shamollash kasalliklari avj olib, jangchilarning muzlab qolishi ham kuzatilgan.

Qatavan mavzesi tuprog'i zarrachalari mayda bo'lgan, uning namlikni o'ziga shimishi, muzlashi ham chuqur bo'lmaydi, tezligi ham sekin bo'lgan. Bu hudud yerlarini yaxshilab kuzatgan va xususiyatlarni o'rgangan Amir Temur qo'shinni tezda Samarqandga qaytaradi va 2 oy davomida yurish to'xtatib turilgan.

Aslida joyning jangovar harakatlarga ko'rsatadiciga ta'siri jangovar vazifa fonida belgilanadi. Joy o'z-o'zidan qo'shinlarning jangovar harakatlari muvaffaqiyatiga yoki dushman kuchini qirqishga garov bo'la olmaydi, biroq komandirlar tomonidan joy to'g'ri baholanganida va jangovar vaziyatlarda joy xususiyatlardan kelib chiqib, harakat qilganda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Ya'ni birgina joyning o'zi jangda vazifani muvaffaqiyatlari bajarishga zamin yaratishi, boshqa holda esa vazifani bajarishni murakkablashtirishi mumkin. Masalan, tog'li joy mustahkam mudofaani tashkillashtirishga qulay imkoniyat yaratса-da, bunday joyda hujumga o'tish murakkabdir, chunki tog'li joyda operativ sig'im tekislikka nisbatan kichik bo'ladi va hujumda ishtirot etadigan qo'shinlar tarkibini chegaralaydi.

Amir Temur qo'shinlari Xorazmga yurish qilganda

cho'l joylardan o'tishga to'g'ri kelgan. Bilamizki, cho'l joylarda qo'shinni harakatlanishi uchun asosiy to'siqlar sochiluvchan qumlar va barxanlar hisoblangan. Yilning quruq vaqtlarida

barxanli va qumliklarning past-balandliklari o'tish qiyin bo'lgan joylar hisoblangan. Bahorda yog'ingarchiliklardan so'ng qumliklar zinchashadi va u orgali harakatlanish yaxshilangan. Bunday vaqtda eng asosiysi, cho'l zonalarida joylashgan suv resurslari, ya'ni quduqlarning o'rni, suvining tozaligi va chuqurligi, suv hajmi muhim o'rin tutgan (*Qizilqum cho'lidagi quduqlarning chuqurligi odatda 5 metrdan 200 metrgacha bo'lib, ularning suv hajmi sutkasiga 3-5 kub metrga yetadi. Barcha suv manbalari sho'rox, kam hollarda o'ta sho'bo'lgan, unda ko'p miqdorda zararli aralashmalar va mikrob tashuvchilar bo'lgan. Shuning uchun bu suvlar faqatgina tozalangan (qaynatilgan) dan so'nggina iste'mol qilingan*). Shuning uchun Amir Temur qo'shini ayrim hollarda cho'l joylarda harakatlanish uchun har doim alohida yo'nalish yo'il yoqalarda (*karvon yo'llari*), asosiy hududlarda, suv ta'minoti bor joylarda harakatlangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, zamonaviy jangning asosiy turlarida joyning umumiy xarakteri aniqlashtiriladi, uning yaqqol ko'rinish darajasi hamda harakat uchun to'silganlik darajasi, o'tish shart-sharoitlari, kuzatish va niqoblash xususiyatlari o'rganiladi. Bundan tashqari joyning jangovar texnika va qurollarni jangda qo'llashga bo'lgan ta'siri aniqlanadi va prognozlashtiriladi. Chunki bunday ma'lumotlar qo'shinlar tomonidan jangovar harakatlar olib borishi uchun juda muhimdir.

Demak, joy haqidagi ma'lumotlar, joyning topografik elementlari va taktik xususiyatlari Amir Temur davrida ham qo'shinlar uchun muhim bo'lgan. Asosiyi, jang sharoitida joyni har tomonlama o'rganish, razvedka va rekognossirovka qilish bugun ham o'z dolzarbigini yo'qotmagan.



Podpolkovnik E. MADALIMOV,
dotsent B. HAYDAROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi o'qituvchilari

ZARKENT QO'RG'ONIDAGI FAYZLI UCHRASHUV

Noyabr oyining oxirlari. Qish eshik qoqayotganiga qaramay, o'lkamizda hamon quruq va iliq havo hukmron. Va niyoyat, yomg'ir tomchilay boshladi. Barchaning dilidan "xayriyat", degan xursandchilik o'tgani aniq. Axir tabiat g'uborini yuvib, zaminimizni obi hayot bilan siylovchi bu mo'jizaga nima yetsin. Samarqand garnizonining olis hududi sanalmish Zarkent qo'rg'onidagi harbiy shaharchada istiqomat qilayotgan harbiy xizmatchilarining oila a'zolari bilan kutilgan uchrashuv mana shunday shukuhli onlarda amalga oshirildi.

**IJTIMOY-HUQUQIY,
MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIR**



Kuch tuzilmalari: Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi tasarrufidagi harbiy qismida amalga oshirilgan tadbir esda qolarli bo'ldi. Tadbirda tarbiyachi ofitserlar, harbiy xizmatchilarining oila a'zolari bilan jamoatchilik asosida ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassislar, harbiy oila bekalarini hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Podpolkovnik Sa'dulla Ubaydullayev xizmat qilayotgan harbiy qismida amalga oshirilgan tadbir oiladagi erkak va ayolning haq-huquqi bilan bog'liq qiziqarli mavzuda boshlandi. Oilada er-xotin o'z burchi, er va ayollik mas'uliyati, haq-huquqini to'g'ri anglab harakat qilar ekan, bu xonodon ko'ngilsiz muammolardan yiroqda bo'ladi. Respublika harbiy prokuraturasi xodimi adliya mayori Gulchehra Tursunova aynan shu haqda so'z yuritdi.

Vatan ichra kichik bir Vatan deya e'zozlanuvchi har bir oilaning o'z yashash tarzi, qonun-qoidasi, jamiyat oldidagi burchi va albatta, muammolari bor. Harbiy xizmatchilarining oilalari yashash sharoiti, muammolaring uyg'unligi bilan ajralib turadi. Ya'ni mas'uliyatlari soha vakillari Vatan buyurgan joyda qad rostlaydi, har qanday sharoitda burchini ado etadi. Ular qayerda xizmatda bo'lmashin, oila a'zolari ham birga bo'ladi, shubhasiz.

Olasini kaftida tutgan posbongina Vatanini kiftida asray oladi. Xonodon obodligi, er-xotin inoqligi, farzandlar barkamolligi, bir so'z bilan aytganda, mustahkam va namunali oila bo'lish harbiy oila bek va bekasining ezgu harakatiga bog'liq. Shunday ekan, harbiy oilalarda qaysi

muammo ko'p uchraydi, bunga huquqiy savodxonlikning qanday daxli bor? Prokuratora xodimining dildan qilgan samimi suhbat harbiy oila bekalarining mana shu savollariga javob bo'ldi.

Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilar oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis Zulfiya Mansurovani harbiy oila bekalarini juda yaxshi tanishadi. Negaki tinib-tinchimas jonkuyar bu inson harbiy xizmatchilarining oila a'zolari bilan tinimsiz uchrashuvlar, turli yo'nalishdagi tadbirdilar, ko'rlik-tanlovlari o'tkazib turadi. Ularning muammolarini ijobji hal etish borasida sa'y-harakatini ayamaydi. Ushbu uchrashuvda ham xotin-qizlar yetakchisining dildan qilgan suhbatni oilalarni asrash, bekalik va rafiqalik burchini chiroyli ado etish, farzandlar tarbiyasiga e'tiborli bo'lish, hayot muammolarini yengib o'tishda sabr-qanoat, o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini mustahkamlash borasida ibratli misollar ila fikr bildirib o'tdi.

OILA BEKALARI UCHUN SAYYOR QABUL



Tadbir davomi mavjud muammolarni hal etish borasida sayyor qabul – alohida suhbatlarga ulandi. Adliya mayori Gulchehra Tursunova hamda Zulfiya Mansurova harbiy oila bekalarining savollariga javob qaytarishga, murojaat va muammolarini ijobji hal etishda tegishli maslahat va amalii yordam berishga harakat qilishi.

– Tikuvchilikka qiziqaman, uyda shug'ullanib turaman, – deydi harbiy oila bekasi Umida Yaqubova. – Harbiy shaharchadagi chevarlikka qiziqqan qo'shnilarimga ham o'rgataman. Menda shu egallagan hunarimni kengaytirish g'oyasi tug'ildi. Harbiy oilalarni ham tadbirkorlikka jalb etilayotgani ayni muddao bo'ldi. Maqsadim – tikuv mashinalari sotib olib, shu sohaga qiziqqan bekalar bilan faoliyatimni kengaytirish. Harbiy liboslar tilish bilan birga harbiy shaharchadagi oilalarga ham xizmat ko'rsatish. Buning uchun oilaviy tadbirkorlik haq-huquqi va bu boradagi maslahatlar menqa juda zarur edi. Izlagan savollarimga javob oldim, juda xursandman.

Harbiy oila bekalarini – Gulshod Abdurahmonova, Munisa Abdujalilova ham dillariga tugib qo'yan savollariga javob topganlari hamda muammolariga qonun doirasida yordam olishlari mumkinligidan minnatdor bo'lishdi.

IJTIMOY HIMoya DOIMO NAZORATDA



Tadbirdan ko'zlangan ezgu maqsaddan yana biri chet joyda istiqomat qilayotgan harbiy oila bekalarini farzandlarining salomatligiga jiddiy e'tibor qaratish. Malakali shifokorlarni jalb etib, ularni tibbiy ko'rordan o'tkazish.

Kasallikni davolagandan ko'ra oldini olgan afzal deyishadi. Ko'plab oila bekalarida o'zi va farzandlarining salomatligiga e'tibor bermaslik, to'g'riroq'i, kasallikning dastlabki bosqichida beparvo bo'lish holati ko'p uchraydi. Shifokor qabuliga borishga erinadi, "o'tib ketadi", deya shifokordan bemaslahat dori-darmon qiladi. Bu o'zboshimchalik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Respublika harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan harbiy oila bekalarini farzandlari chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rordan o'tkazildi.

Xususan, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy markazi Samarqand filiali hamda Qo'shrabot tumani tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi shifokorlari tibbiy ko'rik ishtirokchilariga chin dildan xizmat ko'rsatishdi. Kerakli maslahat va tavsiyalar berishdi. Bu e'tibor va g'amxo'rlik harbiy oila bekalarini va o'g'il-qizlari salomatligini asrashda muhim o'rinn tutgani aniq.

HARBIY XIZMATCHILARNING YASHASH SHAROITI QANDAY?



Kunning ikkinchi yarmida tadbir mehmonlari harbiy shaharchada bo'lib, harbiy xizmatchilarining oilalariga yaratilgan sharoit bilan yaqindan tanishishdi. Bugunning talabi asosida qurilgan ko'p qavatlari uylarga havas qilsa arziydi. Qish eshik qoqayotgan bir pallada xonadonlardagi isitish tizimi qanday, gaz, suv borasida muammolar yo'qmi? Mehmonlar bir qator xonadonlarda bo'lib, mavjud sharoitni ko'zdan kechirishdi.

– Bu xonadonda 3-darajali serjant Mirzobek Niyyazmetov oilasi istiqomat qiladi, – deydi Zulfiya Mansurova mehmonlarga xonadon ahlini tanishitir ekan. – Oilada ikki farzanddan keyin uch egizak – ikki qiz va bir o'g'il dunyoga keldi. Ko'rib turganligizdek, bu baxtli oilada besh farzand voyaga yetyapti...

Tadbir mehmonlari kichik serjant Arslon Qoraqulov, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Maqsud Himmelov va kichik serjant Xumoraxon Asadova oilasida bo'lishdi. Xonadonlardagi mavjud sharoit bilan yaqindan tanishishdi.

Samarqand garnizonining Zarkent qo'rg'onida joylashgan harbiy qismida amalga oshirilgan ijtimoiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy tadbir harbiy xizmatchilarining oila a'zolari uchun muhim ahamiyat kasb etganiga shubha yo'q.



SUN'Y INTELEKTNING harbiy kadrlar tayyorlash tizimiga ta'siri

Dunyoning aksar olimlari robotlashtirilgan texnikaning ishlab chiqarilishi, shuningdek sun'iy intellekt rivojanishi bilan yaqin davrda ko'plab kasblarning sezilarli darajada qisqarishi, yo'q bo'lib ketish ehtimoli yuqoriligini e'tirof etishmoqda. Jahonning eng yirik tahil markazlari mutaxassislarining fikricha, avtomatlashtirish, robotlashtirish real jarayon va buni qanchalik murakkab bo'lmasin qabul qilishimiz lozim.

AQShning Oksford Martin maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, birinchi navbatda, muntazam jismoniy mehnat bilan bog'iqliq kasblar 81 foizga, ma'lumotlarni qayta ishlash 69 foizga, shuningdek ma'lumotlarni yig'ish bilan bog'iqliq kasblar 64 foizga sezilarli darajada kamayadi. Tadqiqotda kompyuter texnologiyalarining 702 xil kasba ta'siri o'rganildi, uning natijalariga ko'ra, keyingi 20 yil ichida sun'iy intellekt va robototexnika rivojanishi tufayli ish o'rinnarining 47 foizga yo'q bo'lib ketish xavfi mavjud. Ishdan bo'shatish ehtimoli kredit mutaxassislari uchun 98 foiz, ma'murlar uchun 96 foiz, yurist yordamchisi uchun 94 foiz, taksi haydovchilar uchun 89 foiz, qo'riqchilar uchun 84 foiz va kompyuter dasturchilar uchun 48 foizni tashkil etadi, deb ko'satilgan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlari natijalarining tahlili shuni ko'rsatadi, yaqin yillarda sodir bo'ladijan o'zgarishlar barcha sohalar kabi harbiy sohaga ham jiddiy ta'sir etadi. Shuning uchun ham harbiy kadrlarni tayyorlashda yangi mutaxassisliklar haqida

o'yash, bu borada chuqr asoslangan ilmiy tadqiqot ishlarni boshlash kerak. Buni tom ma'nodagi zarurat, deb e'tirof etishimiz darkor. Xorijiy davlatlar armiyalarida robotlashtirilgan tizimlar xizmati yo'lg'a qo'yilganligi, ularning dunyoning turli nuqtalarida sodir bo'layotgan harbiy mojarolarda qo'llanilayotgani bugun hech kimga sir emas. Robotlashtirilgan majmualar jangovar harakatlar muvaffaqiyatiga va harbiy xizmatchilarining hayotini saqlab qolishga imkon bermoqda.

Sun'iy intellektning harbiy kadrlar tayyorlash tizimiga bilvosita ta'siri yangi mutaxassisliklar paydo bo'lishi bilan birga harbiy ta'limga tizimida ularni tayyorlashga qo'yiladigan talablarning o'zgarishida ko'rindi. Masalan, zamonaviy texnologiya va robotlashtirishga asoslangan quroaslaha, harbiy texnika va jangovar tizimlar tegishli bilim, ko'nikma va malakaga ega mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi.

Robototexnika sohasida yangi mutaxassisliklarni bosqichma-bosqich joriy etish uchun dastlab o'quv dasturlari mazmunini yangilash kerak. Turli robot tizimlari va komplekslari bilan ishlash bo'yicha bilim beradigan yangi yo'nalishlarni joriy etish lozim. Bunga harbiy robototexnika asoslari kurslari, dronlar va uchuvchisiz uchish apparatlari dasturlash, ularni boshqarish bo'yicha o'qitish va harbiy robot tizimlariga xizmat ko'rsatish ixtisosligi bo'yicha kurslar kiradi.

Shuni hisobga olish kerakki, harbiy sohanasi robotlashtirish alohida tuzilmalarni yaratishni, ya'ni

robototexnika va muhandislik sohasi bo'yicha boshqaruv organlarida yangi bo'linmalarni shakllantirishni taqozo etishi mumkin. Robot tizimlarni boshqarish bo'yicha harbiy xizmatchilarining malaka va ko'nikmalarini oshirish, harbiy sohada robototexnika asoslari ta'limga dasturlarini ishlab chiqish ushbu yo'nalishdagi dastlabki qadamlar sirasiga kiradi. Rivojanish jarayonida yangi robotlashtirilgan majmualarni qo'llashni o'rgatish uchun maxsus poligonlarni yaratish zarurati ham paydo bo'ladi. Shu maqsadda yangi simulyatorlar va robot tizimlarni ishlab chiqish, ehtimol kelajakda robot tizimlaridan amaliy foydalanishga o'rgatish uchun ixtisoslashtirilgan o'quv maydonchalarini yaratish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, robotlashtirishning tatbiq etilishida quyidagi yangi mutaxassisliklarni shakllantirish mumkin:

- harbiy maqsadlar uchun robot tizimlarni boshqarish bo'yicha operator (*havo, yer, yer osti va suv muhitida*). Ushbu yo'nalishdagi mutaxassislar turli robot tizimlarni dasturlash va boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi;

– xizmat ko'rsatish muhandisi, harbiy robot tizimlari yig'uvchisi.

Ushbu sohadagi mutaxassislar robot tizimlarni yig'ish, o'rnatish, diagnostika qilish va ta'mirlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;

– harbiy maqsadlar uchun robot tizimlarning muhandis-konstruktori.

Ushbu sohadagi mutaxassislar robot tizimlarni loyihalash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;


– harbiy maqsadlar uchun robot tizimlarning integratori.

Ushbu mutaxassisning vazifasi aniq geografik sharoitlarda va jangovar vaziyatlarda robot tizimlarini ishga tushirishdan iborat bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, ushbu masalaning psixologik tomoniga e'tibor qaratish lozim. Harbiy sohada sun'iy intellekt, ya'ni robotlashtirish harbiy xizmatchilarda tashvish, notanishlik va boshqa reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, harbiy xizmatchilarini o'qitish jarayonida ularni tayyorlash tizimiga psixologik moslashish dasturlari va qo'llab-quvvatlashning muayyan dasturlarini joriy etish zarur bo'ladi. Bunday o'quv dasturlari yangi texnologiyalarga ijobji munosabatda bo'lishga yordam beradi va harbiy xizmatchilarining o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishiga ko'maklashadi.

Kelajakka hozirgi kundan tayyorgarlik ko'rish zarur. Ayniqsa, robotlashtirish sharoitida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimida yangi mutaxassisliklar haqida bosh qotirish lozim. Bu kelajakdagagi harbiy operatsiyalar va jangovar harakatlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan muhim qadam bo'ladi. Qisqacha aytganda, yangilangan ta'limga dasturlari, zamonaviy o'qitish usullari va psixologik moslashuv asosida harbiy xizmatchilarining robotlashtirilgan tizimlar va komplekslar bilan ishlashi harbiy kadrlar tayyorlashning ajralmas qismiga aylanishi kerak.

**B. AHMADJONOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi,
harbiy fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD)**



50-modda

Har kim ta'limga olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'limga tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'limga tashkilotlari rivojanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'limga tarbiyani rivojlanishiga uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiyligi o'rta ta'limga va boshlang'ich professional ta'limga olishni kafolatlaydi. Umumiyligi o'rta ta'limga majburiyedir. Maktabgacha ta'limga va tarbiya, umumiyligi o'rta ta'limga davlat nazoratidadir. Ta'limga tashkilotlari alohida ta'limga ehtiyojlariiga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limga va tarbiya ta'minlanadi.

51-modda

- Fuqarolar davlat ta'limga tashkilotlari tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'limga tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega.

52-modda

- O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlanishiga, sog'lim, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

53-modda

- Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalananish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

Joriy yil 1-dekabr kuni dunyo miqyosida “OITSqa qarshi kurash kuni” deb e’lon qilinganiga 41 yil to’ladi. Birinchi bor 1982-yilda OIV/ OITS (*Odamning immunitet tanqisligi virusi/ Ortirilgan immunitet tanqisligi sindromi*) deb tashxis qo’ylgan ushbu xastalikning tarqalishi Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan Afrika mamlakatlarida haligacha yuqori sur’atlarda davom etmoqda.

Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi xastalikning so’nggi bosqichi bo’lib, bunda yemirilgan immunitet, ya’ni himoya tizimi infeksiyalarga qarshi kurasha olmaydi va kasallik o’lim bilan yakun topadi.

Kasallik asosan xulq- atvori buzuq shaxslar orasida tarqalishiga moyilliigi va ular bilan samarali ishlash imkonii qiyinligi aholi o’tasida virusning “sanqib” yurishi uchun sharoit

Kasallik chaqiruvchi virus odam tanasiga parenteral, ya’ni qon orgali, teri va shilliq qavatlar butunligi buzilishi bilan kechadigan barcha tibbiy va notibbiy muolajalarda, shaxsiy gigiyena vositalardan umumiy foydalanganda, jinsiy va vertikal yo’llar bilan yuqishi mumkin.

OIV yuqqan kundan boshlab kasallikning yashirin davri (2-4 hafta) o’tgach, birlamchi o’tkir klinik belgilari kuzatiladi. Bunda tana harorati ko’tarilib, bir necha guruh limfa bezlari, jigar, taloq kattalashadi, bo’g’imlarda og’riq bo’lishi mumkin. Terida toshmalar paydo bo’ladi. Bunday holat OIVni yuqtirib olganlarning 17-25 foizidagina uchraydi va faqat 10-12 kun davom etib tuzalib ketadi. Bu vaqtida qonni OIVga tekshirganda musbat natija aniqlanadi. OIVni yuqtirib olgan boshqa guruh shaxslarda esa hech qanday klinik belgilari bo’lmaydi. Ular tibbiy tekshiruv vaqtida OIVga qon olib spesifik tahlilda musbat natija olinsagina OIV tashuvchi ekanligini bildilar. OIVni yuqtirib olganlarning bir qismida immun va asab tizimlarini virus ta’sirida zararlanganligi sababli, hech qanday kasallik belgilari bo’lmay turib, qaytariluvchi tarqoq limfoadenopatiya holati kuzatiladi. Bunda limfa tugunlari tizimining ikki va undan ko’proq qismi og’riqsiz, qo’zg’aluvchan bo’ladi, bunday holat uch oy va undan ko’proq davom etadi. Asta-sekin bu davr OITS oldi davriga o’tadi. Bu davrda sababsiz tana harorati 38-40 darajagacha ko’tarilib, kechga yaqin va tunda kuchayadi. Bemor ko’p terlaydi, umumiy quvvatsizlik, tana vaznining kamayishi, sababsiz ich ketishi kuzatiladi. OITS oldi davri bir necha yil davom etgandan so’ng bemorlarda OITSning aynan klinik ko’rinishlari namoyon bo’ladi. Bunda yuqorida ta’kidlangan klinik belgilarga qo’shimcha, og’iz bo’shilg’i shilliq qavatlarida zamburug’li kasalliklar, doimiy yo’tal, o’rab oluvchi temiratki, teri kasalliklari, kaposhi sarkomasini kabi o’ta xavfli kasalliklar qo’shiladi. Bunday kasalliklarning qo’shilishi bemorda OITS kasalligi manzarasining namoyon bo’lishiga olib keladi. OIV bilan zararlangan bemorlarning ma’lum qismida limfoadenopatiya davridan to’g’ridan to’g’ri OITS davriga o’tib, u o’lim bilan yakunlanadi.

Giyohvand moddalarini tomir ichiga qabul qiluvchilar orasida OIV bilan yashovchi shaxslarning nisbati, aholining boshqa guruhlari orasida aniqlangan OIV bilan yashovchi shaxslarning nisbatiga ko’ra bir necha o’n barobar ko’pligini hisobga olsak, bu yo’nalishning dolzarbigiga shashshuba qolmaydi. O’zbekistonda hisobga olingan OIV bilan yashovchilarning 80 foizga yaqin qismi inyeksion narkotiklar iste’moli paytida virus yuqtirib olganlari fikrimizning daliilidir.

O’zbekistonlik olimlarning tadqiqotlariga ko’ra, chet ellarda ma’lum muddat mobaynida pul topish maqsadida bo’lib qaytgan erkaklarning 0,8 foizida OIV tashuvchanligi aniqlangan. Ushbu insonlar orasida so’rov o’tkazilganda, ularning 93 foizi begona ayol bilan jinsiy muloqotda bo’lganligini ta’kidlagan, 4 foiz erkak giyohvand modda iste’mol qilganligini aytgan.

OIV yuqishining yana bir ahamiyatlari bo’lgan jihatni kasalxonan sharoitida tibbiy muolajalarni bajarishda ya’ni qo’ylishi mumkin bo’lgan kamchiliklardir. Kasallikni yuqtiruvchi virusni ayni kasalxona sharoitida yuqtirganligini isbotlash juda mushkul masala hisoblanadi, chunki OIV infeksiyasi yuqqandan so’ng kasallik belgilari yuzaga chiqmaydi.

qo’llash, simptomatik davolash usullaridan foydalanishga qaramay, natijalar samarasiz qolmoqda. Bunga sabab bemor organizmi hujayrasи va virus DNK lardan hosil bo’lgan “gibridd”dir. Gibridd DNK hujayraning ichiga berkinib olib, “begona”dan hujayraning “o’zinkи”ga aylanib oladi. U provirus deb ataladi. Bunday holatda provirusga limfositlar, antitelolar va dordinarmonlar ta’sir qilmaydi.

Iloji boricha, nikohgacha jinsiy aloqadan o’zini tiyish, to’yan keyin esa o’z yoriga umrbovd vafodor bo’lib, ma’naviy halol hayot kechirish nafaqat OIVni, balki boshqa jinsiy aloqa yo’li bilan yuqadigan kasalliklarning oldini olishning eng yaxshi, ma’qul va to’g’ri yo’lidir. Jinsiy aloqa, ayniqsa tasodifiy jinsiy aloqa hollarida lateksli prezervativdan to’g’ri foydalanish kasallik yuqish xavfini keskin kamaytiradi. Giyohvand moddalar iste’mol qilmaslik, birov ishlatqan ustara, tish cho’tka kabilarni ishlatishdan “hazar” qilish, jamoat sartaroshxonalarini xizmatidan foydalanganda ustara yangi tig’ o’rnatishini talab qilish, tatuirovka va pirsing kabi teri butunligini buzish bilan kechadigan muolajalardan o’zini saqlash, agar ularga zarurat juda kuchli bo’lsa, doimo sanitariya nazorati ostida bo’lgan ishonchli salonlar xizmatidan foydalanish lozim.

OIV bilan yashovchi ayollar homilador bo’lsalar virusning bolaga yuqmaslik choralar ko’riladi. Buning uchun homilador ayol maxsus tibbiy nazoratga olinadi. Unga antiretrovirus preparatlari bilan profilaktik davolash o’tkaziladi. Tug’ish davri kelganda unga tug’ish jarayoni chaqaloq uchun kasallik yuqish xavfi bilan kechishi mumkinligi tushuntiriladi va bola “Kesarev” usulida olinadi. Sut orqali ham virus yuqish xavfi bo’lganligi tufayli bola emizilmasdan, sun’iy ovqatanishga o’tkaziladi.

O’zbekistonda “Himoyalanmagan guruh” deb ataluvchi guruhlar orasida profilaktik dastur bo’yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda, chunki OIV infeksiyasi aynan ushbu guruh orasida ko’p uchramoqda. O’zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2003-yilda ishlab chiqilgan va har 5 yilda yangilanib, takomillashtirilayotgan OIV infeksiyasiga qarshi kurashish bo’yicha strategik dastur asosida profilaktik va davolash tadbiralarining amalga oshirilayotgani vaziyatning barqarorligini ta’minlamoqda.

Respublika bo’yicha 30 dan ortiq do’stona xona tashkil etilgan bo’lib, ushbu xonalarda jinsiy yo’llan yuquvchi infeksiyalarni anonim va bepul davolash yo’lga qo’yligan. Murojaat qilgan bemorlarga ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida malakali tashxislash va davolash muolajalarini olish bo’yicha batafsil ma’lumotlarni olish imkoniyati mavjud.

**Tibbiy xizmat podpolkovnigi Ilhom ABDUKARIMOV,
Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi bo’linma boshlig’i.**

**Qurolli Kuchlar xizmatchisi
Baxtiyor AXMEDOV,
markaz vrach-mutaxassisasi**

ASR VABOSI



Bu davlatlarda dunyo aholisining 2 foizdan ozrog’i yashasa ham insoniyat o’tasida ro’yxatga olingen OIV bilan yashovchilarning 30 foizdan ortig’i shu davlatlarga to’g’ri keladi. Botsvana va Svazilend kabi davlatlarda 40 foizgacha aholi OIV bilan yashamoqda. Bundan tashqari, keyingi davrda Xitoy, Indoneziya, Papua-Yangi Gvineya, Vietnam, Markaziy Osiyoning bir qator mamlakatlarida, Boltiqbo’yi va Shimoliy Afrika davlatlarida epidemiya tezlashib bormoqda.

Viruslar hayotning eng sodda shakli bo’lib, ularning o’lchami judayam kichik. Ularni faqat elektron mikroskop orqali ko’rish mumkin, xolos. Viruslar odatda ikki guruhga bo’linadi. Birinchi guruhga kiradigan viruslar o’zlaricha ko’payish xususiyatiga egadirlar, chunki ularning tarkibida irlari ma’lumotlarni naslidan naslga o’tkazish uchun zarur bo’lgan DNK bor. Bunday viruslarga zarur xomashyo topilsa, uni DNK yordamida yangi viruslarga aylantiraveradi. Odatda bunday xomashyo bo’lib organizm hujayralaridagi moddalar xizmat qiladi. Virus hujayralarga kirib olgach, undagi moddalarini yangi virus tanachalarini “yasash” uchun ishlatib yuboradi va oqibatda hujayra o’ladi.

Ikkinci guruhga mansub bo’lgan viruslarda (*OIV ham shu guruhga kiradi*) irlari ma’lumotlarni faqatgina RNK (*ribonuklein kislota*) ga “yozilgan” bo’lib, o’zlaricha ko’paya olmaydilar. Ularning ko’payishi uchun kimlarningdir DNKSiga genetik ma’lumotlarni kiritish kerak bo’ladi. DNKSiga genetik ma’lumot kirkgan hujayra “virus ishlab chiqaruvchi fabrika”ga aylanib qoladi.

OIV faqat odam organizmida yashaydigan infeksiyalar qatoridan o’rin olnan, shuning uchun faqat odamlarga kasallikka chalinadi. Virusning tuzilishi sodda bo’lganligi va tarkibidagi detallar uncha ko’p bo’limganligi uchun har xil organizmlarda va tashqi muhitda yashab ketish qobiliyati yo’q. Virus “o’zini juda yaxshi his qiladigan” muhit – odam organizmining biologik suyuqliklari (*qon, sperma, ona suti, qin va bachadordan ajraladigan suyuqliklar, orqa miya suyuqligi, so’lak, ter, ko’zyosh va burun suyuqligi va h.k.*) hisoblanadi. Sog’lom odamning qoniga kirib, unga kasallik yuqtirib olishga yetarli bo’lgan ichida virusi bor suyuqlikning miqdori undagi virus konsentratsiyasiga to’g’ridan to’g’ri bog’liq bo’ladi. Bunga binoan, kasallik yuqtirib olish uchun igna uchidagi qonning miqdori yetarli bo’lsa, shu bir kichkina tomchida bo’lgan virus miqdori 4 litr so’lakda bo’ladi. Kasallikning tarqalishida virus tashib yuruvchilar bemorlarga nisbatan xavfildir. Chunki ular umumiy kasallikka chalinganlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Tashqi ko’rinishidan go’yoki sog’lom bo’lib, kasallikning o’ziga xos belgilari mavjud emas va kasallikning yashirin davridan tortib, barcha bosqichlarda (*laboratoriya tahllilarida aniqlanmaguncha*), ya’ni umrining oxirigacha boshqa shaxslarga virusni yuqtirishi mumkin.

OIV infeksiyasingin insoniyat uchun xavfliligining eng asosiy sababi ushbu kasallikning asosiy nishoni har bir davlatning kelajagi, jismoniy va aqliy salohiyati va jamiyatning asosini tashkil etuvchi yoshlar ekanligidir.

Hayotiy tajribasi kam bo’lgan yoshlarning OIV/OITS kasalligi haqida yetarli ma’lumotga ega emasligi ushbu kasallik bilan bog’liq bo’lgan og’ir asoratlar, dunyo, shu jumladan respublikamiz miqyosida kasallikning tez sur’atlarda tarqalishiga zamin yaratadi. Bu borada Qurolli Kuchlarimiz shaxsiy tarkibining ham asosiy qismini yoshlar tashkil etishi oldimizdagidagi mas’uliyatni yanada oshiradi.

Kasallikni chaqiruvchi virus odam organizmi himoya tizimini jarohatlaydi, natijada organizm turli xil kasallik qo’zg’atuvchilariga qarshi kurashish qobiliyatini yo’qotib, ular oldida ojiz bo’lib qoladi.

Davlatimiz chegarasini piyoda va avtovositalarida nazorat qilishda birmuncha qiyinchiliklar tug'diradigan hududlarda xizmat otlaridan samarali foydalaniadi. Chegarachilarimiz otlar ko'magida sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash bilan birga, ko'plab musobaqalar va ko'rgazmalarda ham yuqori natijalarga erishib kelmoqdalar.

Mardlar maydonda sinaldi

Xususan, Jizzax viloyatining "Ravot" aholi yashash punktida joylashgan maydonda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shini mezonligida tashkil etilgan "Ot poygasi" milliy etnosport turnirida ham mamlakatimizdagi kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mohip chavandozlar o'zaro bellashdilar.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa va Ichki ishlar vazirliglari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2023-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'ttasida 2023–2025-yillar davomida etnosport turlari bo'yicha turnirlarni o'tkazish tartibini belgilash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, tashkil etilgan mazkur tadbirda yig'ilganlar bugun mamlakatimizda ot sportini rivojlantirishga qaratilayotgan diqqat-e'tibor, chavandozlarning mahoratini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda yoshlarni ushbu sport turiga

qiziqtitish maqsadida olib borilayotgan tizimi ishlar xususida to'xtalib o'tdilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shini mezonligida, Milliy gvardiya, Mudofaa va Ichki ishlar vazirliklarining chavandozlar 800, 1 000 va 1 200 metr masofaga ot chopish bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Barchaning diqqat-e'tiborini tortib, har bir vazirlik va idora vakillari o'z ishtirokchilariga muxlislik qilgan mazkur poyga davomida qatnashuvchilar bor kuch-mahoratlari, chopqirliklari, xizmat otlari bilan bir-birlarini tushungan holda harakatlana olish qobiliyatlarini amalda namoyon etdilar.

Chavandozlarning poygadagi ishtiroki O'zbekiston Respublikasi Ot sporti va yilqichilik federatsiyasi vakillari tomonidan odilona baholab borildi.

Ta'kidlash kerakki, o'sib kelayotgan yosh avlodni ot sportiga qiziqtitish maqsadida tadbirga Sharof Rashidov tumanidagi 9,39,46,47,53 va 57-umumta'l'im



maktablari hamda Zomin tumanidagi "Temuriylar izdoshi" nodavlat ta'lif muassasasi o'quvchi-yoshlari ham taklif etilib, ular uchun sarhadlarimiz posbonlari tomonidan xizmat otlari ishtirokida konkur, digitovka, voltijirovka hamda boshqa bir qator akrobatiq mashqlar, shuningdek xizmat itlari ishtirokida davlat chegarasi buzg'unchisi hamda yot jismilarni aniqlash singari ko'rgazmali chiqishlar ham namoyish etildi.

Qizg'in va murosasiz kechgan turnir yakuniga ko'ra, 800 metr masofada o'tkazilgan poygada 1-o'rinni Chegara qo'shini vakili III darajali serjant A. Suyarov "Kagor" laqabli xizmat oti bilan, 2-o'rinni Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi kichik serjant O. Alimov "Bulut" laqabli xizmat oti bilan, 3-o'rinni esa Mudofaa vazirligi chavandozi kichik serjant Sh. Botirov "Antikvar" laqabli xizmat oti bilan egallashga muvaffaq bo'ldi.

Poyganing navbatdagi – 1 000 metrli masofasida ham peshqadamlik bilan raqiblarini ortda qoldirgan chegarachi chavandoz III darajali serjant F. Askarov "Kumar" laqabli xizmat oti bilan birinchi, Ichki ishlar vazirligi harbiy xizmatchisi kichik serjant D. Urazov "Reestat" laqabli xizmat oti bilan ikkinchi va Milliy gvardiya jamoasi vakili III darajali serjant A. Alayarov "Tasalixon" laqabli xizmat oti bilan 3-o'rinni egalladi.

So'nggi 1 200 metrli masofada "Antikvar" laqabli xizmat oti bilan Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchisi kichik serjant Sh. Botirov birinchi, "Prognozxon" laqabli xizmat oti bilan Chegara qo'shini chavandozo serjant X. Choriyev ikkinchi va "Shelist" laqabli xizmat oti bilan Ichki ishlar vazirligidan safdar J. Abdusaxatov uchinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi. G'oliblar tashkilotchilar tomonidan maxsus kubok, diplom va medallar bilan taqdirlandi.

– Ot chopish ota-bobolarimizdan meros bo'lgan qadriyat sanaladi. Qolaversa, biz chegarachilar xizmat otlarimizdan sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash borasida ham og'irimizni yengil qiluvchi doimiy hamroh sifatida foydalaniib kelmoqdamiz. Bugungi poygada men "Kagor" laqabli xizmat otim bilan bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilishim natijasida 800 metrli masofani ildamlik bilan bosib o'tib, marraga birinchi bo'lib yetib keldik. Bundan albatta, xursandman. Chunki raqiblarimiz ham, ularning xizmat otlari ham ancha yaxshi tayyorgarlikka ega edi, – deydi musobaqa g'oliblaridan biri III darajali serjant Ahrorbek Suyarov.

Albatta, o'tkazilayotgan bu kabi bellashuvlar mamlakatimizda milliy etnosport turlarini yanada ommalashuviga xizmat qilishi bilan bir qatorda, kuch tuzilmalarining ham o'zaro hamkorliklarini yanada mustahkamlashi, shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shini

OYOQNING ZAMBURUG' KASALLIGI



Oyoq zamburug'lari oyoq terisining infeksiyasi bo'lib, qichishish va qizarish kabi belgilar bilan namoyon bo'ladi. Oyoqning anatomik nusxonlari (*yassitovonlik yoki oyoqlar orasi burmalarining torligi*), ba'zi hollarda noqulay va havo o'tkazmaydigan sintetik poyabzallarni kiyish, oyoqlarning uzoq vaqt noqulay sharoitda bo'lishi zamburug'li kasallik hisoblangan mikozlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Oyoq mikizi bilan og'rigan bemorlar va zamburug'lar bilan zararlangan buyumlar esa kasallik manbayi hisoblanadi. Xo'sh, bu kasallik asosan kimlarga yuqadi, uning rivojlanishiga nima turki beradi? Umuman olganda, kasallikning alomatlari qanday, uni davolash mumkinmi, shuningdek kasallikning oldini olish uchun qanday choralar ko'rish lozim? Quyidagi ma'lumotlarimiz orgalni siz shu savollarga javob topishingiz mumkin.

Kasallikning rivojlanishi

Shifokorlarning xulosasiga ko'ra, oyoq zamburug' kasalligining kelib chiqishiga oyoq terisida zamburug'larning o'sishi va ko'payishi asosi sababdir. Zamburug'lar issiq va nam muhitda, ayniqsa barmoqlar orasida, oyoq tagida va tirnoq ostida osongina ko'payadi. Bundan tashqari, basseyen, hammom va sport zallari kabi joylarda yalangoyoq yurish infeksiya xavfini oshiradi.



Bu kasallik asosan shaxsiy gigiyena qoidalariiga rioya qilmaydigan kishilarga yuqadi. Kasallikning rivojlanishiga oyoq panjasining ko'p terlashi, ishlab chiqarish omillarining ta'siri, qon tomir va endokrin tizimida uchraydigan potologik o'zgarishlar, onkologik immuntanqislik bilan kechuvchi kasalliklar ham sabab bo'ladi.

Alomatlari

Kasallikning dastlabki davrida teri qichishadi, qizaradi, quruqlashadi, oyoq hidlanadi, qipiqlar yuzaga keladi, aniq chegaralangan dog'lar paydo bo'ladi. Agar o'z vaqtida davolanmasa kasallik tirnoq plastinkalariga o'tishi mumkin. Bunda tirnoq plastinkalari qalinlashadi, uvalanadi, rangi o'zgaradi, yuzasi g'adir-budur bo'lib qoladi. Ba'zilarda tirnoq plastinkasining ko'chishi kuzatiladi.

Davolash usullari

Antifungal kremlar: bu eng keng tarqalgan davolash usuli. Infeksiyalangan joylarga antifungal kremlar qo'llaniladi. Go to antifungal dorilar: og'ir holatlarda yoki infeksiya keng tarqalgan bo'lsa, shifokor antifungal dori-darmonlarni buyurishi mumkin.

Tirnoqlarni parvarish qilish: oyoq tirnoqlarini muntazam ravishda kesish va tozalash ham davolashda muhim sanaladi.

Tabiiy davo choralar:

Iste'mol sodasi va natriy borat

Iste'mol sodasi zamburug'ni davolashning eng arzon va samarali vositasi hisoblanadi. Shuningdek u oyoqlardagi yoqimsiz hidlarni ham yo'qotadi. Natriy borat esa kasallikni davolashga yordam beruvchi tabiiy ishqorli vosita hisoblanadi. Agar siz soda va natriy boratni aralashtirib, uni hafta davomida bir kunda ikki mahal zararlangan tirnoqlarga sursangiz tez kunlarda zamburug'dan xalos bo'lasiz.

Apelsin yog'i

Zamburug'ga qarshi tabiiy vositalardan yana biri bu – apelsin yog'i sanaladi. Har kuni tirnoqlarga bu yog'ning bir tomchisini suring. Agar teringiz ta'sirchan bo'lsa, unda allergik ta'sirlar kuzatilishi mumkin. Unga biroz zaytun yog'i qo'shishingiz lozim bo'ladi. Sizda apelsin yog'iga allergiya bor-yo'qligini tekshirib ko'rishni maslahat beramiz.

Choy daraxti yog'i

U antiseptik va zamburug'ga qarshi kurashuvchi samarali vosita hisoblanadi. Bu yog'ni tirnoqlaringizga suring, singishini kuting va 10 daqidadan keyin quruq tish cho'tkasi bilan ishqlang. Choy daraxti yog'ini ham bodom yoki zaytun yog'lari bilan aralashtirish mumkin.

Lavanda yog'i

Bu yog' mikroblarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Shu bois oyoqlarni bir necha tomchi lavanda yog'i bilan massaj qilish kasallikni bartaraf qilishga yordam beradi.

Olma sirkasi

Olma sirkasi ham mikroblarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Suv bilan suyultirilgan olma sirkasi bilan oyoqni vanna qilish qo'zqorin infeksiyasi kamaytiradi.

Sarimsoq

Sarimsoq tabiiy antifungal xususiyatlarga ega. Shuning uchun oyoqlarni maydalangan sarimsoq bilan massaj qilish infeksiyaga qarshi kurashishda samarali yordam beradi.

Kasallikning oldini olish uchun...

* Oyoqlarni toza va quruq holda saqlash, ayniqsa barmoqlar orasini quritish shart.

* Tabiiy nafas oladigan materiallardan tayyorlangan poyabzal kiyish lozim, bu ayniqsa issiq havoda muhim.

* Jamoat joylarida (*hovuz, mehmonxona, sport zali yoki sauna*) yalangoyoq yurmaslik kerak.

* Do'konda poyabzal kiyib ko'rganda, paypoq bilan kiyish tavsya etiladi.

* Pedikyr paytida barcha asboblar dezinfeksiyalanganligiga ishonch hosil qilish lozim.

Shu o'rinda zamburug' infeksiyasi xususida ko'pchilik ishonadigan noto'g'ri fikrlar haqida ham so'z yuritib o'tishni lozim topdik. Chunki shu kungacha u haqda ko'plab taxminlar mavjud bo'lgan. Lekin ularning hammasi ham ishonchli emas. "Domashniy ochag" nashri ushbu infeksiya haqida 5 ta noto'g'ri fikri ilgari suradi. Mana ular:

"Zamburug' immunitet pastligi tufayli rivojlanadi"

Qoida tariqasida, zamburug' infeksiyasi yaralar orqali tanaga kiradi. Agar

terida yoriqlar, ternalishlar yoki kesilgan joy bo'lsa, zamburug' infeksiyasini yuqtirish mumkin. Agar immunitet pasaysa, infeksiyani yuqtirish ehtimoli ko'proq va u tezroq rivojlanadi. Har bir narsa sog'liqqa mos keladigan bo'lsa, dastlabki bosqichda zamburug' oyoq tagining kuchli ko'chishi sifatida o'zini namoyon qilishi mumkin. Agar infeksiya bor bo'lsa, u immunitet tizimini faollashtiradigan vositalar bilan cheklanmasdan, davolanishi kerak.

"Davolanishdan so'ng barcha poyabzallarni tashlash kerak bo'ladi"

Odatda paypoqsiz kiyiladigan poyabzallardan qutulish kerak. Etik, krossovka, poyabzallar do'konlarda va internetda sotiladigan oyoq kiyimlar maxsus moslama bilan dezinfeksiya qilinishi mumkin.

"Infeksiya istalgan vaqtida qaytishi mumkin"

Agar davolanish to'g'ri amalga oshirilsa, qaytalanish ehtimoli deyarli nolga teng. Kasallik rivojlanishining birinchi bosqichida, hali tirnoq tushishi boshlanmagan bo'lsa, yetarli miqdorda tashqi dori-darmonlar – krem, tibbiy lak yoki maxsus eritma yordamida tirnoqlarni asrab qolish mumkin. Agar tirnoq plastinkasining 40 foizdan kamrog'i zararlangan bo'lsa, u holda tashqi preparatlarga qo'shimcha ravishda shifokor tabletkalar buyuradi. Zamburug' sporalarini yo'q qilinganda, oyoqlarni sog'lom deb taxmin qilish mumkin. Ammo qachonki gigiyena qoidalariiga rioya qilinmasa, infeksiya yana paydo bo'ladi.

"Agar zamburug' oila a'zolaridan birida bo'lsa, boshqalarga ham yuqadi"

Uy hayvonlarining oyoqlarida yara va yoriqlar bo'lsa, infeksiya odamga ham yuqishi mumkin. Agar inson oyoqning holatini doim kuzatib, gigiyenaga rioya qilsa va sifatli poyabzal kiyisa, u infeksiya tashuvchisi bilan bir xonadonda yillar davomida yashasa ham kasal bo'imasligi mumkin.

"Zamburug' juda yuqumli bo'lib, uning oldini olish mumkin emas"

Bu noto'g'ri fikr. Chunki kasallikning oldini olish uchun qoidalari mavjud va ularga rioya qilish qiyin emas.

G. HOJIMURODOVA
tayyorladi.

KO'K



UV

76-modda

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anavyi oilaviy qadriyatlari, nikohlanuvchilarining ixtiyoriy roziligidiga va teng huquqligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.



77-modda

- Ota-onalar va ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiysi, ta'lim olishi, sog'iom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.
- Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'iom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi.

Suhbatimiz kelgan joyidan davom etadi.

– Men o'zbekman...

Bunisi hammasidan oshib tushdi. Nima, men nemis ekanmanmi? Men ham o'zbek! Shundoqqa bilinib turibdi, parcha qovoqlaringiz-u, oyday yuzingizdan o'zbek ekanligingiz, demadim. Dugonam bilan suhbatimiz qizigani sari nega hadeb "o'zbekman" deb ta'kidlashini tushundim. Tojiklarga, enasining urug'lariiga kelin bo'lgan ekan.

– O'g'il uyladim, qiz chiqardim, nevaralar ko'rdim hamki, o'zbek kelin deyishadi, o'z bo'lmadim hech...

Sekin eriga qarayman, ikkita o'zbekning gapi botmayaptimikan? Qayoqda, parvosiga ham kelgani yo'q.

– Enam yoshligida juda chiroqli bo'lgan ekan. Otam oshiq bo'lib qolgan. O'zbekka qiz bermaymiz, deyishganidan keyin, otam enamni opqochib kelgan ekan. Biz voyaga yetganimizdan keyin enam, so'qmoqlar yo'qolib ketmasin deb, meni qarindoshlariga uzatdi.

Gappa tojik kuyov qo'shildi:

– Men Nilufarga uylanib, qaynotamdan tojiklarning o'chini oldim-da!

"Qasoskor"ning gapiga hammamiz kulishdik.

Shu payt suhbat mavzusi o'zgardi. Dugonam mashinaning chang bosgan oynasidan zo'r berib tashqariga qarardi:

– Bu mening qishlog'im, shu qishloqda tug'ilganman. Halqobod qishlog'i. Anovi ko'k "teraskali" uy bizding uy, ana! E, enammi? Hi-ii, enamakan, yengini hilpillatib hovliga chiqyapti...

Ha, qishloq, katta yo'ldan daraxtlar, dala ajratib turibdi, qator qishloq uylari, o'rtada yaxshigina masofa bor.

Rostini aytsam, na ko'k "teraskali" uyni ko'rdim,

na yenglari hilpiragan ayolni ko'rdim. Ko'zlarim yaxshi ko'rmaydi, ammo ko'zoynakda hamma qatori ko'raman-da! Nega dugonam ko'rayotgan narsalarni men ko'rmayapman?! Enasini ham ko'rdi hatto. Men esa ko'rmadim... Hech kimni ko'rmadim.

Nazarimda, u boshqacha ko'zlar bilan ko'rdi-yov. Ba'zan sog'inch shunday ko'rishga majbur qiladi. Hatto ovozini ham eshitasan enajoningni.

Dugonamga diqqat bilan qarayman. Ichimdag'i savol, shafqatsiz savol baribir tashqariga otilib chiqdi:

– Enangizni ustidan qanday o'tib ketyapsiz, qanday o'ti-iib ketolyapsiz?..

Norizo nigohlari bilan eri tomonga bilintirmay qaradi, tillari butunlay boshqa narsani so'yladi. Ovozidagi o'ktamlik yo'qolgandek, allaqanday xokisorlik bor:

– Ertaga baribir oldiga boraman...

– Oxirgi marta qachon keluvdingiz? Uzoqda turasizmi?

– Kelib turaman.

Hozir Nishon tumanida yashaymiz.

Nishon bilan G'uzor orasi. Hech qancha emas. Shunday o'ylasangiz yanglishasiz. Toshkent bilan Qarshi orasi... Samolyotda 55 daqiqa. Tezyurar "Afrosiyob"da uch soat. Ammo Nishon bilan G'uzor orasi shaxsiy ulovingiz bo'limasa, u mashinadan bu mashinaga o'tirib yo'lda chiqsangiz to'rt-besh soatlik yo'ldir.

Shunday ekan...

Kuyovlar, opangiz tomon yo'lda chiqqaniningizda yo'l ustidagi, kelinning enasini ham birrov ziyorat qiling. Enalar ham g'animat! O'zimdan qiyos. Qani edi, meni ham kutadigan ENAM bo'lsa...

**Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"**

78-modda

- Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoni, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.
- Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlargacha sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

- Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anavyi oilaviy qadriyatlari, nikohlanuvchilarining ixtiyoriy roziligidiga va teng huquqligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

77-modda

- Ota-onalar va ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiysi, ta'lim olishi, sog'iom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.
- Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'iom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi.

Yoshlar “Vatanparvar” tashkiloti bilan yaqindan tanishdi

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining 32 yilligi munosabati bilan respublika bo‘ylab yoshlarni tashkilot faoliyati, ayniqsa ular uchun yaratilgan keng imkoniyatlar va imtiozlar to‘g‘risida xabardor qilish maqsadida ko‘plab ommaviy harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlari hamda ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar o‘tkazilmoqda.

Mana shunday tadbirlardan biri Buxoro viloyatida ochiq eshiklar kuni shakilda tashkil etildi. Tashkilotning Vobkent tumani o‘quv sport-texnika klubida “Vatanparvar” tashkiloti – mening tanlovim! shiori ostida o‘tkazilgan ushbu tadbirda tumandagi umumta‘lim maktablari o‘quvchilari va mahalla yoshlari ishtirok etdi.

Tadbirda mutasaddilar tashkilot tarixi va bugungi kunda harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash borasida erishilayotgan yutuqlari to‘g‘risida ma‘lumot berdilar. Tadbir davomida “Vatanparvar” tashkilotiga a‘zo bo‘lish istagini bildirgan yoshlarga a‘zolik guvohnomalari topshirildi.

Yoshlarda avtokross, motokross, karting, pnevmatik quroldan o‘q otish, duation, triatlon kabi texnik va amaliy sport turlari bo‘yicha tashkil etilgan seksiyalarining ko‘rgazmalari katta taassurot qoldirdi. Tashkilotning Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi muassasalarida ko‘pgina yoshlar sport bilan shug‘ullanib, nafaqat O‘zbekiston, balki jahon championatlarida ham yuqori o‘rinlarni egallaganliklari haqidada ma‘lumotlar berilib, ular tomonidan qo‘lga kiritilgan diplom, medal va kuboklar namoyish etildi.

Tadbir davomida yoshlar o‘rtasida pnevmatik quroldan o‘q otish va arqon tortish bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi. Tashrif buyuruvchilarga, shuningdek texnik xizmat ko‘rsatish mutaxassislarini tayyorlashda qo‘llaniladigan zamonaviy texnik jihozlar namoyish etilib, ularni qo‘llash tartiblari tushuntirildi.

So‘ngro yoshlar Vobkent tumani o‘quv sport-texnika klubining sinfonalariga taklif etilib, ularga avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv-moddiy negizi, jumladan innovatsion texnologiyalar va trenajyorlar namoyish etildi.



O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi
“Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

✓ YONG‘IN XAVFSIZLIGI OYLIGI

Kuz-qish mavsumida elektr isitish moslamalaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj ortib boradi. Bunday paytlarda ayrim fuqarolarning ehtiyojsizligi oqibatida ko‘ngilsiz hodisalar va yong‘in sodir bo‘lishi mumkin.

ELEKTR QURILMALARIDAN FOYDALANISHDA...

Elektr qurilmalaridan foydalanishda quyidagilar taqilanganadi:

- elektr jihozlarini ishlab chiqaruvchining foydalanish hujjatlari talablariga muvofiq bo‘limgan sharoitlarda ishlatalish yoki nosozligi bo‘lgan elektr jihozlaridan foydalanish;
- himoya qobig‘i shikastlangan yoki himoyalash xususiyatini yo‘qtgan elektr kabel va simlardan foydalanish;
- shikastlangan (nosoz) elektr rozetkalaridan, rubliklardan, himoya vositalaridan, elektr simlari qutilaridan va boshqa elektr qurilmalaridan foydalanish;
- elektr simlari va kabellarini yelimlash va bo‘yash, elektr lampalar va yoritqichlarni qog‘oz, mato va boshqa yonuvchi materiallar bilan o‘rash, shuningdek yonuvchan materiallar saqlanadigan omborxona (yordamchi) binolaridagi chiroqlardan himoya qalpoqlarini yechib olgan holda foydalanish;
- yonmaydigan materialdan ishlangan tagliklarsiz (podstavka) dazmol, elektr plitka, elektr choynak va boshqa elektr isitish anjomlaridan foydalanish;
- tarmoqqa ulangan elektr isitish moslamalarini va boshqa maishiy elektr jihozlarini nazoratsiz

goldirish (ishlab chiqaruvchi korxonaning yo‘riqnomasida kun-u tun ishlaydigan va ishlashi mumkin bo‘lgan elektr jihozlari bundan mustasno);

– nostandart (qo‘lbola) elektr isitish moslamalaridan, shuningdek ularda konstruksiyasida nazarda tutilgan yong‘in kelib chiqish ehtimolini istisno qiluvchi termoregulyatorlari mavjud bo‘lmaganda yoki ishlamay qolganda foydalanish;

– elektr uzatish tarmoqlari va elektr jihozlarini ortiqcha yuklanishdan va qisqa tutashuvlardan himoya qilish uchun avtomatik saqlagichlar va kalibrangan eruvchan himoya o‘rnatmasi o‘rniga qo‘lbola tayyorlangan (sim o‘ramalari, “qo‘lbola saqlagich” va boshqalarni) vositalarni qo‘llash;

– omborxonalar ichidan, shuningdek yong‘in hamda yong‘in-portlash xavfi bo‘lgan hududlardan elektr sim va kabellarni tranzit holda hamda havo quvurlari va quvurlar tarmog‘i orqali olib o‘tish;

– yonuvchi materiallar saqlash omborxona va bostirmalari, yonuvchan tomlar ustidan o‘chiq elektr uzatish liniyalari va tashqi elektr simlarini yotqizish;

– arxiv, muzey, galereya kutubxona va omborlar binolarida elektr isitish moslamalaridan foydalanish;

– elektr tarmog‘ining yuklamasini ruxsat etilgan me‘yordan oshirish;

– qurilish-montaj, ta’mirlash va avariya-yi tiklash ishlari amalga oshirilayotgan joylarni elektr ta‘minoti bilan ta‘minlash hamda vaqtinchalik illyuminatsiya yoritish uchun o‘tkazilgan elektr o‘tkazgichlardan tashqari vaqtinchalik elektr o‘tkazgichlardan foydalanish va ularni o‘rnatish;

– radio va telefon simlaridan elektr tarmoqlari simlari sifatida foydalanish;

– turli xil materiallardan (mis va alyuminiydan) tayyorlangan elektr simlari (kabellari)

o‘tkazgichlarni bir-biriga to‘g‘ridan to‘g‘ri ulash;

– bir-birini zaxiralovchi elektr zanjirlarini, ishchi va avariya yoritish zanjirlarini, boshqaruv va ta‘minlovchi elektr kabellarni bir lotokda yoki qurilish konstruksiyasining bir yopiq kanalida, bog‘lamida, metall yengda, quvurda o‘tkazish.

O‘. CHORIYEV,
Toshkent garnizoni yong‘in nazorati
inspeksiysi boshlig‘i o‘rinbosari

INTERNET HAMLASI

Ayonki, texnik taraqqiyotni to'xtatish mumkin emas. biz buni xohlaymizmiyo'qmi, kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'rninga ega, kompyuter savodxonligi ko'satskichi esa ko'p hollarda insонning yuqori saviyasi belgilab beruvchi omilga aylanib bormoqda. Bugun kompyuterda ishlashni bilmaydigan xodimni yaxshi mutaxassis deyish qiyin. Agar o'tgan asrning 90-yillari o'talarida yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'satuvalar ko'rish bo'lsa, ayni kunda esa kompyuter va internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod hayotidan siqib chiqardi. Hozirgi zamon yoshrining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'nnaviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, interneta bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi.

ONLAYN HAYOT VAKILLARI

Nielsen/Net Ratings kompaniyasi o'tkazgan so'nggi ilmiy tekshiruvlar natijalariga ko'ra, butun dunyo tarmog'iga ulanayotgan yosh bolalarning soni kun emas, soat sayin oshmoqda. Mutaxassislarining fikricha, bu – tabiiy holat. Negaki, kundan kunga internetdan foydalanayotgan oilalar, demak, undan foydalanayotgan farzandlar soni ko'paymoqda. Bunday onlays hayotda yashaydigan yoshruning katta qismi – 4,5 millioni Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. Ular har kuni elektron manzillarini tekshiradi, turli xil saytlardan ma'lumot izlaydi va chat (*global tarmoqdag'i suhbatxona*)lar orqali muloqotda bo'lishadi.

Darhaqiqat, XXI asr zamonaviy yoshrular hayotiga sezilarini chizgilarni kiritdi. O'tgan asr bolalari maktab, turli to'garak va sport seksiyalariga chopgan bo'lsa, bugun ular o'zaro disklar, fleshkalar va axborotni saqlovchi shu kabi boshqa vositalardan imkon boricha tez foydalanishga shoshiladi. Yosh avlodning ota-onalariga nisbatan kompyuter savodxonligi baland, masalan, bugun olti yoshli bolalar blyutuz (*bluetooth*) va spam nimaligini kattalarga nisbatan yaxshi biladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlardan biri Kanadada 17 yoshgacha bo'lgan 6 ming bola o'tasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ular sodda ota-onalar o'ylaganidek, internetdan aksariyat hollarda axborot olish maqsadida foydalanmas ekan. So'rovda ishtirok etganlarning 99 foizi internetdan foydalanishini, ularning har 10 nafaridan 8 naftari uuda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirdi. Kanada yoshruning yarmidan ko'pi internet va kompyuter texnologiyalari ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda interneta ularnishini, ota-onalar kompyuterga himoya vositasi bo'lgan "filtrlash" dasturini o'rnatib qo'yaganliklari va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Umuman olganda, ota-onalarining aksariyat qismi, aniqrog'i, 65 foizi farzandlari internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi, degan fikrdi, yoshr esa ilm olishni eng oxirgi o'ringa qo'yadilar. Ular asosan internet orqali musiqa tinglaydi, elektron manzilni tekshiradi, xullas, vaqtini chog' o'tkazadi. Yoshruning uchdan ikki qismi interneta yangi do'stlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish maqsadida ularadi, ularning 15 foizi keyinchalik bu munosabatlarni real hayotda davom ettiradi ekan. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Alovida e'tibor talab etadigan jihat esa internet orqali ta'qib deb nomlanadi.

VIRTUAL TA'QIB

Tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar internetdan erta foydalana boshlayapti. Lekin mutaxassislarining fikricha, yoshi o'nga yetmagan bola odatda mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va shu asnodda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajratish bilish, boshqacha qilib aytganda, "filtrlay" olish qobiliyatiga ega emas. Shu sabab internetdan yolg'iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo'lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak. Unga o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni internet orqali tanishgan odamlarga aytmaslikni o'rgatish zarur. Biroq dunyo tarmog'idagi qanday axborot maktab yoshidagi bolalar uchun foydali bo'lishi mumkin? Kuniga bir necha soatlab kiber makonda "sayohat qiladigan" o'smirlar aslida nima bilan shug'ullanadi va bu holat ularning dunyoqarashi, xarakterida qanday aks etadi? Zarur hollarda o'smirlarning axborot xavfsizligini qay usulda ta'minlash mumkin?

Mazkur savollar ko'pchilik ota-onalar hamda yoshrular muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilot xodimlarini tobora ko'proq tashvishga solyapti va o'ylantirmoqda. Bunga jiddiy asos ham bor. So'nggi paytlarda internet orqali ta'qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, grifing holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbanlari aynan yoshr qatlami, xususan, o'smirlar hisoblanadi. Sababi, shu yosha bolalar tabiatan ochiq bo'ladi hamda

dunyoga faqat ijobiy nuqtayi nazar bilan qaraydi. Ular o'zlarini erishgan yutuqlari bilan o'rtoqlashishni, o'z fikrlarini birovlarga bayon etishni, g'oyalari bilan bo'lishishni xohlaydilar. O'smirlar o'ta ishonuvchan, kompyuter o'yinlariga qobiliyatli, buyruqlarni osonlikcha bajaradigan bo'ladi.

Afrotdigilar bilan ko'proq muloqotda bo'lib, yangidan yangi fikr-g'oyalarni o'rtaga tashlaydilar, ularni amalda qo'llashga intiladilar, biroq bu borada ularga hayotiy tajriba yetishmaydi. Shuning uchun ham ular saytlarda qidiruvni amalga oshirayotganda, axborotni qabul qilishda yoki elektron pochta manzilidan foydalanayotganda kattalar yordamiga muhitoj. Chunki bir qarashda beozor tuyulgan chatxonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni oxir-oxibat jinoyatgacha yetaklashi ham mumkinligi hayotiy haqiqat. Grifing bilan shug'ullanuvchilar yoki grifyorlar zamonaviy yoshruning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardon bo'lib, onlays konferensiya, forumxonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritishi, o'zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko'rsatishi mumkin, buning ustiga veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi.

QARSHI KURASH CHORALARIGA KELSAK...

Grifing bilan kurashishning eng oddiy usuli – kompyuterga maxsus taqiqlov dasturlarni o'rnashit. Shunda o'sha foydalanuvchidan keladigan barcha xabarlar avtomatik tarzda filtrlandi yoki dasturga ota-onalar tomonidan kiritilgan cheklow tufayli bolaning o'zi qiziqib nojo'ya axborotni olmoqchi bo'lganda avtomatik taqiq ishga tushadi. Ayni paytda mazkur dasturlar ham to'liq xavfsizlikni kafolatlay olmaydi, chunki ba'zida ular foydali axborotni cheklab qo'yishi yoki keraksizini o'tkazib yuborishi ham mumkin.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda internetdan foydalanish darslari faktivatif sifatida maktab dasturiga kiritila boshlandi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, faktivatif darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma'lumotlarning haqqoniy va to'g'riligini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslarni ayniqsa, o'smirlar uchun zarur.

Internetda grifingdan tashqari aynan o'smir yoshdagilar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. Vaqt o'tgani sayin bolalar va internet muammosi tobara chuqurlashib borayotgan bir paytda, global tarmoqda ekstremistik xarakterdagi, sekta va turli xil uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi va virtual firibgarlikka ham keng yo'l qo'yilgani kishini tashvishga soladi.

Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdag'i saytlarga yetaklashi, bu veb sahifalarda

esa ularning ruhiy yoki jismoniy sog'lig'iga xavf soluvchi ma'lumotlarning borligi tabiiy. Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta'sir o'tkazib, bolalarni internet doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Yoki bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolaklalar onlaysavdolarda qatnashish imkonini bilan birga kichik o'yinchodidan tortib to eng so'nggi rusumadi mashina sotib olish huquqiga ega bo'lishi ayni haqiqat. Bu narsa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi. Shu sabab global tarmoq foydalanuvchilar ko'p bo'lgan Belarusda bu kabi muammolar qator yangi kasblarning vujudga kelishiga ham turki bo'ldi. Mazkur yangi turdag'i mutaxassislarining vazifasi oilada internetdan foydalanish madaniyatini joriy etadigan hamda bolalarga psixologik, ma'nnaviy hamda jismoniy zarar yetkazmaydigan ochiq va xavfsiz axborot makonini yaratishdan iborat.

Shuningdek, ko'plab jamaot tashkilotlari, nodavlat tashkilotlari va xususiy kompaniyalar o'z faoliyatini internetning bolalarga ta'siri va bundan bo'ladigan zararning oldini olish usullarini o'rganishga qaratgan. Jumladan, internet mazmunini baholash assotsiatsiyasi (*ICRA*) mustaqil xalqaro tashkilot bo'lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko'ngilsizliklar va xavfli munosabatlar haqida ogohlantirish, kiber makonda bolalarni noto'g'ri axborotlardan himoyalash va so'z erkinligini ta'minlashdan iborat. Ota-onalarga ko'rilayotgan muammolar yuzasidan maslahat, ko'mak beruvchi Kiberfarishtalar (*Cyberangels*) – internetda bolalar huquqini himoya qilishga yo'naltirilgan Yevropadagi ilk tashkilotga 1995-yili asos solindi va ayni paytda AQSh, Kanada kabi davlatlar ham a'zolar safidan o'ren olgan.

Muammolar chuqurlashganini sayin bu kabi tashkilotlar ham keng ko'lamma tadqiqotlar o'tkazish va xavflarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishni kuchaytirmoqda. Xususan, Bolalarni asraylik (*Save the Children*) xalqaro huquqiy tashkiloti o'tkazgan so'rovnomalar natijasida ma'lum bo'ldiki, AQShdagi 15–17 yashar o'smirlarning 85 foizi, Kanada yoshruning 93 foizi muntazam ravishda internetdan foydalanadi. Kommunikatsiya vositalari tadqiqoti assotsiatsiyasi o'lgan natijalarga ko'ra, o'smirlar katta yoshlilarni 2004-yilda qo'yilgan internetdan foydalanish bo'yicha ortda qoldirgan.

Ispaniyaning Bolalarni himoya qilish agentligi tadqiqotlari natijalari shuni ko'satsdiki, internetdan doimiy ravishda foydalanuvchi bolalarning 44 foizi virtual muloqot paytida hech bo'lmaganda bir marta, 11 foizi esa bir necha bor ta'qib ostiga olingan. E'tiborli tomoni, so'rovlarda ishtirok etgan yoshrarning 14,5 foizi internet orqali notanish odamlar bilan uchrashuv belgilagan, 10 foizi bunday uchrashuvlarga yolg'iz borgan, 7 foizi bu haqda hech kimga hech narsa aytmagan.

Dunyo miqyosida esa 38 foiz bolalar zo'ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foizi millatchilik xarakteridagi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borishi ma'lum bo'ldi.

O'tgan yilning oxirgi oyлarda dunyoning eng mashhur kompaniyalaridan biri "Microsoft" 28 davlatda o'zingin chat xonalarni yopishini e'lon qildi. Bu harakat bolalar muammolari bilan shug'ullanuvchi huquqtartib hamda xayriya tashkilotlari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi, chunki erkin va nazoratsiz forum xonalar spam, virus va axloqsiz axborotni tarqatish manbaiga aylanib qolgandi. Shu tariqa, MSN tekin chatlari Yevropa, Yaqin Sharq, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlarda o'z faoliyatini to'xtatdi. O'rniiga Microsoft Messenger tezkor xabar almashinish tizimi joriy qilindiki, endilikda bu xizmatdan foydalanish uchun shaxsiy ma'lumotlarni kiritish asosida ro'yatdan o'tish talab etiladi. Chunki o'tgan yili Buyuk Britaniyada shov-shuvga sabab bo'lgan zo'ravonlar ustidan o'tkazilgan sud jarayonlarining kamida 26 holatida qurbonga aylangan bolalar ta'qibchilar bilan virtual muloqot orqali tanishgani aniqlandi.

XULOSA O'RNIIDA

Zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atlarda o'sishiga qaramay, ba'zan odamlar ulardan oqilona foydalanish kerakligini to'liq anglab yetmaydi. Kompyuter va internetgacha bo'lgan davrda o'sib-ulg'aygan ko'plab ota-onalar va muallimlarning katta qismi, agar bola internetdan foydalana boshlasa, buning, albatta, foydasidan zarari ko'proq, deb o'laydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg'itish harakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya'ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o'zlarini avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etisha, maqsadga muvofiq bo'lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qo'chish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo'yish to'g'ri emas.

Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydalni deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilarkan, bu jihat "Internetda bo'lsa, demak, to'g'ri" deya fikrlaydigan bolalarga ham tegishlidir. Bu borada ota-onalar ularga internetda xohlagan inson o'z sahifasini yaratishi, unga har qanday ma'lumotni joylashtirishi va bunda unga hech kim to'sqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo'naltirish orqali faktlarni fikrlardan farqlashga, to'g'riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanishga o'rgatish mumkin.

QANOTIM YO'Q, VALE UCHGAYMEN



Shamolning oyog'i yo'q, ammo u betinim. Ummonning og'zi yo'q, lek vigor-la hayqiradi. Hayotning izohsiz hodisotlari oldida kishining aqli shoshgani-shoshgan. O'zgarmasdek ko'ringan qonuniyatlar o'zgargani-o'zgargan.

Xudoyskukur 24 yoshli havaskor-rassom. Taqdир taqozosi bilan qo'siz dunyoga kelgan. Ne tong, oyoqlari bilan rasm chizadi. Bu yoshda uning beqaror xayollaridan nimalar kechadi, olam va odamlar unga nechog'liq bo'lib ko'rindi, bu bizga qorong'u. Shunisi aniqli, u chizgan rasmarda toza va shaffof o'spirinining qalbi bor.

Mana, necha kundirkir, xayolimning bir chekkasida shu manzara. Har bir nafasi va hujayrasi bilan yashashga, o'zligini namoyon etishga intilayotgan o'spirin suratlari. Ajabki, uning ismini eshitibiq, shukronalik va sabot bilan umr kechirayotgan odam qiyofasi ko'z oldimga keldi. Xudoyskukur – Xudoga shukur degani. Xorazmning Urganch shahrida tug'ilgan chaqaloqqa shunday ism qo'yishning o'zi bo'lmagandir. Negaki biron nuqson bilan tug'ilib, ota-onha mehridan bebraha qolgovchilarining taqdiri ko'pchilikka ayon. Axir qo'siz dunyoga kelgan farzandni bag'riga bosib, Xudoga shukur deya olish uchun insonga qanchalar matonat va chidam kerak?

Bir kun uni yo'qlab bordim. Bahor yomg'iri yog'di. Balki u hozir derazadan termilib, bir surat xayoli bilan o'tirgandir. Qo'linda na qog'oz-qalam, ko'nglimda na savol bor. Undan nima so'rashni ham bilmayman. So'roqlarim unga noqulaylik tug'dirishidan, beg'ubor xayollariga shikast yetkazishdan cho'chiyman.

Bo'yoq hidi kelib turgan bu xona shubhasiz Xudoyskukurniki. Qiya ochilgan eshikdan kiraman. Karavotning bir uchida yosh rassom o'tirar edi.

Uning yuzida anglab bo'imas xijolat paydo bo'ldi. Bir necha daqiqagacha u menga lom-mim demadi. Boshini og'ir egib o'tirdi.

U chizgan rasmlarni qayta-qayta tomosha qildim. Oq-qora, rangtasvirdagi suratlar. Bularning barini u chizgan.

Xudoyskukur tabiatan og'ir-bosiq, buning ustiga kamgap chiqdi. Undan qachondan rasm chiza boshlagani, oyoq bilan chizish zahmati haqida so'ramoqchi edim. Ammo bildimki, Xudoyskukurning dunyosida bundan-da muhimroq, bundan-da kattaroq voqealar bordek ko'rindi. U barcha savollarimga o'zining

sukut saqlashi va suratlari bilan javob qaytardi. Ba'zi fikrlarni bosh silkib ma'qulladi, ba'zilarini javobsiz qoldirdi.

Uning onasi bilan so'zlashdim. Saida Duschanova o'g'li uchun ko'p narsalarga chidagan, o'z hayotini unga bag'ishlagan validi. Asli pedagog bu ayol yuzlab bolalarga dars berishni istar edi, ammo yonidagi o'ksik bir juft qora ko'zlarga xiyonat qila olmadidi.

O'g'lini o'zi o'qitdi, harf tanitdi, parvarish qildi. 3 yoshidan boshlab unga o'yrinchog o'rniiga turli rasmlar, qalamdonlar sovg'a qildi. Xudoyskukurni 6 yoshidan matabga qabul qilishdi. Ona yengil tin oldi. Uy sharoitida tahsil olgan bolaning ishtiyogi baland chiqdi. Haftaning har ikki kunida beriladigan ta'limga qanoat qilmayotgan o'g'lini ko'rgan ona, yana dars o'tishga qaror qildi. Saida opa bu davrlarni yaxshi xotiralar bilan yodga oladi. Ayniqsa, hech qayerda ishlamay faqat o'g'lini o'qitgan kezlar davlatimiz tomonidan ularga tez-tez moddiy yordam ko'satilganini sira esdan chiqarmaydi. Xudoyskukur tahlilni poytaxtda davom ettiradigan bo'ldi. Ona o'g'li bilan Xorazmdan Toshkentgacha keldi va hali-hamon uning yonida.

– O'g'limga doim yaxshi bo'lsin deyman, – deydi Saida opa. – U meni ko'nglimni ko'taradi. Yaxshiyamki, uni kitob o'qishga, fikrashga o'rgatdim. Bo'lmasa tushkunlikka tushib qolishi hech gap emasdi. U boshqa bolalarga o'xshab har narsa talab qilavermasdi. Yoshligidan oyoqlari bilan qalam tutib, nimadir chizishga harakat qilib yotardi. Xudoyskukurdan keyin ham bitta qizim bor. Shukurki, sog'-salomat tug'ildi. Uning ismini Xudoyskukur qo'ydi. Homilador vaqtimda o'g'lim: "agar singilli bo'lsam, ismini Zilola deb qo'yaylik", degandi. Chunki o'sha paytlari "Zilola" degan qo'shiqni timmay eshitardi. Murg'ak ko'nglini o'shanda ham qaytarmadim.

Bolamning orzusi juda oddiy: hamma qatori yashashni, kasb-hunari, oиласи bo'lishini istaydi. Har kuni ishga borib kelgisi keladi. Ishonasizmi, u vaqtning qadrini juda yaxshi anglaydi. Hatto dam olish kunlari ham o'qishga boraveradi. Balki tengdoshlaridan ortda qolgisi kelmay shunday qilar.

Onaning ko'zları yoshlandi. Hammasi uchun Xudoga shukur qildi.

Men shu onda o'zimni katta rassomning hali hech kim tanimagan va bilmagan bolaligi qarshisida turganimni his qildim. Bir kuni hammasi o'zgaradi: kichik ish stoli katta ijodxonaga, qo'lyozmalar haqiqiy san'at asariga aylanadi. Javob berishdan iyamanib turgan bu ko'zlardan o't chaqnaydi.

O'ylab-o'ylab, Xudoyskukurning ba'zi gaplarini yozib oldim. Bu o'spirinining dunyoqarashi, mulohazalari zamirida men qidirgan savollarning javobi bordek edi.

Onam

Onam doim aytadi: o'g'lim, boshqalardan ko'ra xushmuomala bo'll! Sening yordamching – tiling. Men bir umr sening yoningda bo'olmayman. Hamma joyda ham sening munosabatinga qarab yordam ko'satishadi. Keksa kishi qanchalik hassasiga tayansa, sen tilingga shunchalik suyan.

Yolg'iz qolsam ham zerikmayman. Onamning ko'nglini ko'taraman. Chizaman, o'qiymen, xayol suraman.

O'zim haqimda

Respublika Rassomlik kollejini tugatganman. 5-6 yasharligimdan rasm chizaman. Men qo'nling qadrini qo'llini yo'qotgan odamdan kamroq his qilsam kerak. Chunki men shunday tug'ilganman. Qo'lim yo'qligidan emas, ba'zan menga rahmuddilik bilan qarashlaridan ranjiyman. Men to'rt muchasi sog' va osuda hayot kechirayotgan odamlarni juda baxtli deb hisoblayman.

Yutuq

Bir gal televizordan imkoniyati cheklangan kishilarning yugurish musobaqasini tomosha qildim.



Qatnashchilarning barining oyog'i yo'q. Protez oyoq moslamasida yugurishdi. To'satdan bir ishtirokchining oyoq protezi chiqib ketdi va yerga yiqildi. Birinchi bo'lib ketayotgan ishtirokchi bu holni ko'rib qoldi. Darhol orqasiga qaytib, raqibini turg'azib qo'ydi. O'z g'alabasi bilan uning ko'nglini o'ksitgisi kelmadi. O'shanda musobaqada kim g'olib bo'lgani hozir yodimda yo'q, ammo o'shanda g'alabadan ham muhimroq g'alaba qo'lg'a kiritilgan edi.

Garchi o'zim ko'makka muhtoj bo'lsam ham birovga yordam bergim keladi. Balki yaxshi suratlar chizsam, odamlarning ko'nglini biroz ko'tarman...

Ish jarayoni

Odatda xonada yolg'iz ishlayman. Ba'zan o'zimga o'zim so'z beraman: hech kimga ziyonim tegmaydi, hech kimni bezovta qilmayman. Shunday deyman-u, baribir onamdan, do'stlarimdan ko'p narsa so'rayman. Ko'pgina yumushlarni mustaqil bajara olsam ham baribir odamlarning ko'magiga muhtojman. Birgina surat chizishimni olaylik: goh qalamimning uchi sinib qoladi, goh akvarelimga suv kerak bo'ladi...

Ingliz, rus tillarini o'rganyapman. Yaxshiyam kitoblar bor.

Ijad

Turli tanlovlarda qatnashib, g'olib bo'ldim. Asosan, buyumlar, tabiat manzaralarini chizganman. Endi inson portretini chizishga harakat qilmoqchiman. Buning uchun ko'proq odamlar bilan gaplashishim, kitob o'qishim kerak. O'qituvchimiz doim xarakter va kompozitsiya yaratma olish – asarning yuragi deydi.

Xudoyskukur chizgan ba'zi suratlarda qo'l bilan ham chizish murakkab bo'lgan o'rinnarni ko'rib quvondim. Xudo yuqtirgan iste'dodning yuzaga chiqishida hech narsa to'siq bo'la olmas ekan. Tana a'zolarimiz – vositachi, xolos. Ularning yagona boshqaruvchisi yurak va aqldir.

Xudoyskukur bilan xayrashdim. Eshikdan chiqar ekanman, qalam ustalari ichida mashhur bo'lgan bir ibora Xudoyskukurga ham taalluqli ekanini ich-ichimdan his qildim:

Rembrantning qo'llari bo'Imaganida ham u baribir buyuk rassom bo'lar edi...

Bobur ELMUROD

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI